

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Qo‘llanma huquqida
O‘DK
An‘anaviy ijrochilik kafedrası

SOBIROV NAVRO‘ZBEK HAKIMJON O‘G‘LI

**RUBOB, UD SOZLARINING IJROCHILIK USLUBIDA USTOZ-
SHOGIRD AN‘ANALARI**

5A150702 “An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishi Magistr darajasini
olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
professori R.Qosimov

Taqrizchi: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
dotsenti SH. SHoraxmetov

Toshkent 2017 .

MUNDARIJA

MUQADDIMA	3
I BOB. O‘zbek cholg‘u ijrochiligi tarixidan.....	9
I. 1. Rubob va ud cholg‘u ijrochiligi.....	15
I. 2. Rubob va ud cholg‘u ijrochiligida shakllangan ustoz sozandalar.....	23
II BOB. Ustoz-shogirdlik an‘analari.....	45
II. 1. Ustoz-shogirdlik - an‘anaviy ta‘limning asosidir.....	45
II.2. Maktab davomchilari.....	48
Xulosa	53
.	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	54
Ilova (nota misoli)	55
Saraxbori Buzruk.....	57
Guluzorim.....	69
Mavrigi.....	76

MUQADDIMA

Ma'lumki, har bir millatning milliy musiqiy cholg'ulari, xalqlarni musiqa madaniyatidagi eng noyob yodgorliklari sifatida qadrlanib kelingan. Xalq amaliy san'ati namunasi ko'rinishida betakror ustalar tomonidan yaratilib kelinayotgan musiqiy cholg'ular, davrlar osha avaylab-asralib kelingan. Eng muhimi bu jarayon o'tgan davrning har bir zamonasiga mos holda takomillashib, rivojlanib kelingan.

Barcha xalqlar qatorida o'zbek xalqi ham o'z milliy qadriyatlari, an'analari negizida yuzaga kelgan musiqiy cholg'u asboblari egadir. O'zbek xalq musiqa cholg'ulari, o'zining har tomonlama mukammalligi va rangba-rangligi bilan boshqa xalqlar cholg'ularidan ajralib turadi. SHu bilan bir qatorda, xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlarida, xalqlarning o'zaro madaniy aloqalari, milliy ijodiyot rivojidadagi bir-biriga bo'lgan ta'sirida umumiylik jihatlar bilan sug'orilgan yoki yaratilgan cholg'ularning ham amaliyotga kirib kelishi kuzatilgan. Bu borada o'zbek xalqi cholg'ularga boy xalq hisoblanadi. CHunki, ijrochilik amaliyotimizda o'ndan ortiq tanbur, dutor, sato, g'ijjak, chang, qonun, rubob, nay, surnay, qo'shnay, karnay, nog'ora va doyra kabi har tomolama mukammal musiqiy cholg'ularimiz bor. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, musiqiy cholg'ular ham xalqimizning ma'naviy merosi sifatida ahamiyatga va qadimiy madaniyatiga egadir.

Aytishimiz kerakki, hech bir xalq o'zga xalqlar madaniyati yoki urf-odatlarini va dunyoqarashi bilan yashamaydi, ularning tarix davomida

shakllangan o'zining milliy qadriyatlari yuzaga keladi. Ular asrlar davomida rivojlanib ulkan merosga aylanadi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning aytgan o'g'itlari o'rinlidir: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi".¹

Merosimizdan o'rin olgan cholg'u asboblarni hammasi ham ana shunday o'tmishiga ega bo'lgan cholg'ulardan hisoblanadi va ularning har biri ijrochilik amaliyotida o'zining o'rniga egadir. Ularning orasida rubob (qashqar rubobi) va ud sozlari ham o'zining betakror ovozi va tarannumi bilan sozlar sadolariga o'zgacha joziba baxsh etib kelayotgan cholg'ular qatoriga kiradi. CHolg'ular ma'naviyatimizning ko'zgusi bo'lganidek, ularga har tomonlama e'tibor ham borligini aytib o'tishimiz kerak.

Rubob va ud cholg'ulari va ijrochilari xususida tarixda yozilgan bir qator musiqiy risolalarda turli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Xususan IX asrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiydan boshlab bizning davrimizgacha yashab, musiqaga bag'ishlangan risolalar yozgan Safiuddin Urmaviy, Najmiddin Kavkabi, Zaynullobiddin Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali CHangiy kabi musiqashunos olimlarning musiqiy risolalarida o'ziga xos aks ettirilganligini ko'ramiz.

XX asrda esa ma'rifatparvar shoir Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", Muhammadniyoz Devonzoda (Komil Xorazmiy) "Xorazm musiqasi tarixchasi", I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" (2006 yili "Maqomlar" nomida qayta nashr etilgan), F.Karotovning "O'zbekskaya instrumentalnaya muzyka", R.Kosimovning "Rubob navolari", "Ud", "An'anaviy ijrochilik", S.Begmatov va M.Matyokubovlarning "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" kabi musiqaga bag'ishlangan kitoblar yaratildi.

¹ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. S.29-30.

Ularda barcha musiqiy cholg'ular qatorida rubob va ud cholg'ulariga ham alohida e'tibor qaratilgan. CHolg'u sozining shakli, simlari, ijrochilik jihatlari turlicha yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin, o'zbek musiqa merosida rubob va ud cholg'ularning tarixi o'zgacha bo'lgani bilan asosiy cholg'ulardan ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu cholg'ularga bo'lgan qiziqish va ijrochilik amaliyoti ko'p asrlik tajribalarga asoslangan an'analarni o'rganilmagan tomonlarini bor. Ana shu jihatlarni o'rganish va bilish doimo cholg'ularning tarixi xususida izlanishga undaydi. SHu nuqtai nazardan an'anaviy cholg'u sozlarni o'rganish jarayoni bilan bog'liq mavzu har doimo dolzarb masala bo'lib kelgan.

Ushbu magistrlik ishimizda biz rubob va ud cholg'u ijrochiligida yuzaga kelgan va ijrochilik an'analari bilan bog'liq bo'lgan sozandalar, ularing ijro uslublari asosida yuzaga kelgan ustoz-shogird an'analarni o'rganamiz. Maqsadimiz rubob va ud cholg'ularidagi ijrochilik an'alarida mehnat qilgan va o'zlarining ijro uslublari bilan maktab yaratgan ustozlarni hayotiy faoliyatini, ijrochilik ijodini va uslubini, ijrochilik maktablarini o'rnagishda iboratdir.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi: O'zbek xalqining musiqiy merosining buyukligi va boy an'analarga ega ekanligi barchaga ma'lum. Qadimdan xalqimizning milliy musiqasi bo'lgan. Milliy musiqamiz, donishmand xalqimizning bilimli va mohir sozanda va xonandalari, bastakorlari ijodida shakllanib, yillar davomida ijrochilar amaliyotida rivojlanib kelgan. Ajdodlardan-avlodlarga o'tish jarayonida mumtoz musiqaning shakllari, ijroviy imkoniyatlari aslicha asralib, rivojlanib kelingan. Davrining mohir ijrochilari tomonidan zamonga mos ijrolari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyotida va ayniqsa ijrochilik amaliyotida yuzaga kelgan mumtoz musiqani o'rganish, ijrochilik uslublarni o'zlashtirish va shakllangan an'anaga mos ijro etish masalalari doim dolzarb masala bo'lib kelgan.

Aslida xalq musiqiy merosimiz ikki ulkan qatlam ko‘rinishida va doirasida shakllanib rivojlanib, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelgan: Birinchisi - doimiy hayot uchun zarur va kerakli, marosim va qadriyatlar bilan bog‘liq xalq folklor musiqasi; ikkinchisi maqom bilimdonlari, bastakorlar tomonidan yaratilgan xalq mumtoz musiqasidir. .

O‘zbek xalq mumtoz musiqasi– xalq orasidann chiqqan bastakorlarning ijodiy an’analarida yuzaga kelgan ulkan merosni tashkil etadi. Xalqimizning amaliyotda yuzaga kelgan milliy an’analari negizida yaratilgan bu musiqiy merosimiz, xalqimizning bilimdon va mohir sozanda, xonandalari tomonidan ijro amaliyotida rivojlanib, ustoz san’atkorlar ijodida ajdodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan yirik shakldagi kuylar va ashulalardir.

Musiqacha cholg‘ulari xalqimizning milliy holati asosida yaratilganligi uchun milliylik xususiyatlari kuchli. Ularning azaliy ko‘rinishlari va holatlari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. O‘tmish allomalarning qoldirgan ilmiy merosida bu haqda gapirib o‘tilgan va cholg‘ularning keng kamrovliligiga ahamiyat qaratilgan "Insonning – deb yozadi I.Karimov — ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqacha san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqacha azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqacha sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi"¹². SHuning uchun musiqiy cholg‘ular doimo xalqlarning milliy qadriyatlari qatoriga kirib, xuddi milliy musiqiy ohanglari kabi xalq ma’naviy dunyosini boyituvchi, ruhiyatini tetiklashtiruvchi, ijodiyotini birlashtiruvchi, tarixdan xabar beruvchi vosita sifatida qadrlanib kelingan.

² I.Karimiov. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. T., Ma’naviyat, 2008 y, 140 b.

Dissertatsiyani metodologik asoslari. Tanlagan mavzuni yoritishda avvalo birinchi Prezident Islom Karimovning alohida ta'kidlab o'tgan masalalariga tayanib, har bir millitning o'z ma'naviy dunyosi mavjudligiga e'tibor qaratib, o'tmish allomalari yozgan risolalar va zamonaviy kitoblarni yozish uslublaridan foydalandik. Rubob va ud cholg'u ijrochiligi va amaliyotida o'z ijrolari bilan uslub va maktab yaratgan hamda hozirda ustozlar izidan borayotgan mohir sozandalarni faoliyatlarini yoritishga harakat qildik, ularning ijro amaliyotida yaratgan uslublariga tayandik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda tavsiya etilgan metodlarga murojaat etdik. SHakl, foto suratlar hamda nota misollari orqali izohlash uslublari qo'llanildi.

Dissertatsiya mavzusining ob'ekti. Milliy cholg'ularimiz Rubob va Ud sozlarining ijrochilik amaliyotida shakllangan uslublari va ustoz-shogird an'analari.

Dissertatsiya mavzusining maqsad va vazifalari. Tanlangan mavzuni yoritishdan oldimizga qo'yilgan **asosiy maqsad** o'zbek mumtoz musiqasi ijrochiligida rubob va ud cholg'ularini o'rnini aniqlash, amaliyotda ushbu sozlar ijrochiligida samarali faoliyat olib borgan mohir sozandalarni faoliyati bilan tanishish, ijro amaliyotida yaratilgan va ijro uslublari asosida yuzaga kelgan ustoz-shogird an'alarini bayon etish. Ustozlarning rubob va ud cholg'ularida ijrochilik an'analari bo'yicha yosh sozandalar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni va amaliyotda ahamiyatli bo'lgan jihatlarini o'rganishdan iboratdir.

Dissertatsiya mavzusining o'rganilganlik darajasi. Rubob va ud cholg'usi haqida qadimiy musiqiy risolalar va hozirgacha yaratilgan bir qator risola va kitoblar mavjud. Al-Farobiyning "Katta musiqa kitobi" dan boshlab keyingi musiqashunos olimlar, A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobi hamda undan keyin yaratilgan V.Belyaev, F.Karomatov, S.Begmatov, M.Matyoqubov, R.Qosimov, Misr musiqashunos olimi Ahmad Murtazo kabilarning kitoblarida Ud cholg'usi xususida ma'lumotlar

keltirilgan. Asosan cholgʻuning shakliy va texnik imkoniyatlari, takomillashish jarayoni bayon etilgan. Lekin, amaliyotdagi ijrochilik bilan bogʻliq masalalarga eʼtibor qaratilmaganligini aytish lozimdir. Rubob³ cholgʻusi boʻyicha ham ijrochilik masalalari, ijro uslublar hamda ustoz-shogird anʼanalari xususida maʼlumotlar bayon etilmagan. Dissertatsiyamizda mavzuni yoritishda mashhur sozandalarning ijrolari, ijrochilik faoliyatlaridan kelib chiqib yoritishga harakat qildik.

Dissertatsiyaning tarkibi. Ishning mavzusi bilan bogʻliq mazmuni, unda koʻzlangan maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda dissertatsiya muqaddima, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamla ilovalardan iborat. Birinchi bob “Oʻzbek cholgʻu ijrochiligi tarixidan” deb omlangan boʻlib ikki asosiy masala yoritilgan. Birinchisi, Rubob va ud cholgʻu ijrochiligi masalalari, ikkinchisi Rubob va ud cholgʻu ijrochiligida shakllangan ustoz sozandalar faoliyati xususida toʻxtalib oʻtilgan.

Ikkinchi bob “Ustoz-shogirdlik anʼanalari” deb nomlangan. Unda rubob va ud cholgʻu ijrochiligida yuzaga kelgan ustoz-shogird anʼanalari, maktab namoyandalari va ularning shogirdlari xususida soʻz yuritiladi.

Xulosada ijrochilik amaliyotida faoliyat olib borgan sozandalarning ijodiy faoliyatini yoritib ular haqida aniq tasavvurga ega boʻlinganligi xususida va fikrlarni hozirgi ijro amaliyoti bilan solishtirgan holda muxtasar qilishga urinib koʻramiz.

Ilova sifatida esa ixtisoslikdan ijro etiladigan davlat attestatsiyasi dasturini nota namunasi keltiriladi.

³ SHarq xalqlarida, ayniqsa arab xalqlarida qoʻllanilgan kamonli cholgʻu “Rebab” deb yuritilgan. Markaziy Osiyo xalqlarida ruboblarning bir qator namunalari boʻlgan. Jumladan, Buxoro rubobi, Qashqar rubobi, Afgʻon Rubobi va h.k.

I BOB. O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXIDAN

Isoniyat yaratilibdiki musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan e’tibor kuchayib borgan. Insonlarning qiziqishi va cholg‘ularga bo‘lgan ehtiyoj kuchayayib borgan. Sozandalarning va hunarmandlarning amaliyotida tabiatda mavjud ovozlarga (hayvonot va parrandalar) yoki inson ovoziga o‘xshatish amallari shakllana boshlangan. Bu jarayon juda uzoq vaqt davom etganligi aniq. SHu bilan birga ko‘p jihatli bo‘lib, har bir xalq yoki millat o‘zining milliy qarashlari, qadriyatlari va hayotida yuzaga kelgan eng xarakterli a’analari negizida o‘zlarining milliy xarakterlariga mos keladigan musiqiy cholg‘ularni yaratib, ijro etib kelganlar. Uzoq davrlar davom etgan bu jarayon, insonlarning aqli va ongining rivojlanishi mezonida, musiqiy cholg‘ularni yasash va ijro etish, xususan cholg‘ularga bo‘lgan munosabatlar ham rivojlanib borgan.

“Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal –azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. CHolg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e’tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan”⁴.

CHolg‘ularni yasash va ularda ijro etish boshlanish davrlarda taqlidga o‘xshagan bo‘lishi muqarrar. Keyinchalik ularga bo‘lgan e’tibor kuchaygan, shuning uchun cholg‘ularning turli xillari yaratilgan. Ularning

⁴ S.Begmatov,M.Matyobov. o‘zbek an’anaviy cholg‘ulari, T., 6 y. 3 b.

ovoz chiqarishlaridagi tembrlari ham xilma-xilligini namoyish etilgan. CHolgʻu sozlar qanchalik mukammallashgan sari, ijro etiladigan musiqalar ham mukammallik boʻlib borgan. Natijada, mumtozlik xususiyatga ega boʻlgan asarla oʻz ifodasini topib boravergan. Asrlar davomida musiqa yaratish hayot bilan shunchalar uygʻunlashib borganki, bora-bora ulkan musiqiy meros bunyodga kelgan.

Bizning ana shu ulkan musiqiy merosimiz janrlarga ham boy. Har bir janrda ularni behisob namunalari shakllangan. Ular orasida Maqomlar juda katta oʻrin tutadi. SHuning uchun ham maqomlarni oʻrganish cholgʻularda ijro etish kabi masalalar doimo hammani diqqat markazida boʻlib kelgan.

Oʻzbek xalq cholgʻulariing rang-barang tarzda ijro amaliyotida yuzaga kelish, musiqa merosining barcha tarmoqlariga mos cholgʻu asboblarni dunyoga kelishi va arslar osha rivojlanib kelganligi kitoblarda oʻzaksini topgan. Oʻtmishda yashagan va ijod etgan allomalar Al-Farobiy (IX) oʻzining «Katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marogʻiy (XIV) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin²usayniy (XV) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) «Musiqiy risola»sida, Darvesh Ali CHangiy (XVII) «Musiqiy risola»larida musiqa cholgʻularining atroflicha oʻrganib, oʻz davrlarida amaliyotda boʻlgan namunalari haqida batafsil maʼlumotlar berib, ularni yaqindan oʻrganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga toʻxtalib oʻtganlar. Oʻz davrlarining musiqiy cholgʻularini har tomonlama tasnifotini bayon etganlar.

Aytish kerakki oʻtmish yashagan taniqli shoirlar ham oʻzlarining badiiy asarlarida musiqa cholgʻulariga katta eʼtibor qaratganlar. Badiiy adabiyotlardagi maʼlumotlar ham tarixni bilish toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni oʻzlarida jamlaganlar. Ular musiqa cholgʻulari nomlarini kitoblarga zikr etishda, oʻz davri yoki xalq ijodiyotida afsonaviy tarzda qoʻllanilgan cholgʻu sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ularning

orasida o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning kitoblarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli tomolari, mumtoz musiqaning ahamiyatli tomonlari va ijodiyotida tutgan o'rnini, musiqiy cholg'ularni esa o'ta olimlik bilan ularni xarakteriga tegishli ma'lumotlarni bayon etib shiganlar. Xullas o'zbek milliy musiqa cholg'ularinig azal-azaldan xalqimizning ma'naviyatini namoyon etadigan jihatlarini Alisher Navoiy va shunga o'xshash kitoblardan bilib olish mumkin.

O'zbek musiqasini o'rganishda oxirgi yillar davomida o'zbek milliy cholg'ularini o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Buyuk allomalar yozgan risolalardan tashqari XX asrda musiqashunos olimlar tomonidan yozilgan va o'z vaqtida, davrida nashr etilgan kitoblar hozirgi zamonimizga kelib ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Abdurauf Fitratning XX asr boshlarida yozgan va 1924 yili nashr etilgan "O'zbek klassik musikasi va uning tarixi" kitobi, Viktor Belyaevning "Музыкальные инструменты Узбекистана" kitobi 1933 yili nashr etilgan, Fayzulla Karomatovning "Uzbekskaya instrumentalnaya muzyka" 1972 yili chop etilgan, Tamara Semyonovna Vyzgoning musiqiy cholg'ularni tarixiy vabadiiy yoritgan "Музыкальные инструменты Средней Азии" kitobi 1980 yili nashr etilgan. Ushbu kitoblarda o'zbek an'anaviy milliy cholg'ularining tarixiga, rivojlanish bosqichlarida, shakllari hamda ijroviy imkoniyatlari xususidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Tarixiy qo'lyozmalar, shoirlarning badiiy asarlarida va musiqaga bag'ishlangan risolalarida Markaziy Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbadd, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona,

bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar turli darajadagi ma'lumotlar bilan keltirilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbek cholg'u ijrochiligi amaliyotida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirib keldi. Ushbu cholg'ularning turli variantlari ijro amaliyotida tarix davomida bo'lgan bo'lsada, shu davrga kelib yangicha yondoshishlar bo'lganligini sezish mumkin. Ayniqsa Ud va qonun cholg'u sozlari qaytadan tiklanib ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan ijrochilik amaliyotidan munosib o'рни oldi.

O'zbek cholg'u ijrochilik amaliyoti o'zining betakror tarixi bilan ushbu sohaning keskin rivojlanib kelganligini ko'rsatadi. Musiqa cholg'ulari, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan amaliyotda bir-birini to'ldirib, rivojlanib kelgan. Bu jarayon cholg'ularning zamonga qarat takomillashishiga zamin yaratib kelgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Bu albatta ijro amaliyotini keskin rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Xususan, ijrochilik mezonining rivoji musiqa cholg'ulari ko'lamini kengaytirish, ijroviy yoki texnik imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida amalga oshirilib kelingan. Ayniqsa mumtozsusiq, ya'ni kasbiy musiqamizning ijodiyoti va ularning rivoji aynan musiqa cholg'ulari bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunki, mumtoz musiqa ijodiyoti cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularni rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois bo'lsa kerak, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan boshlab xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bera boshlagan adabiyot namoyandalaridan Firdavsiy, Ro'dakiy, Hofiz, Sa'di, Jomiy va

Navoylardir. Ularning adabiy merosida cholg'ular faqatgina nomlari keltirilmagan. Balki ma'lumotlar keltirilgan cholg'ularning shakliy va ijroviy xususiyatlari badiiy obrazlarga xos ta'riflanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan: Firdavsiy «SHoxnoma»da yozadi:

Yig'ildi akobir, cholg'uchi, raqqos,
Podsho shodligidan sochar dur, olmos.

CHiqar avjiga nay, childirma sasi,
CHirillab aylanar qizlar galasi.

Ulug'lar sha'niga qadah paydar-pay,
Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay⁵.

SHarq dunyosining ulug' mutafakkirlaridan biri Jaloliddin Rumiylar Rubobning ta'rifini shunday keltiradi:

Ishq tili – rubob tilidek sir emish,
Turku, yunonu, arabga bir emish.

YOki:

Rubob mutribi ishq ast, munisi ashob,
Ki abrro Arabon nom kardand rubob.

CHunon ki abr soqiyi gulu guluston ast,
Rubob quti zamir astu soqiy albob.

Alisher Navoiyda esa cholg'ularga emas, avval cholg'u ijrochiligiga e'tibor qaratadi. So'ngra har bir cholg'uning sadolanishini har tomonlama ta'rifini keltirganligini guvohi bo'lamiz.

Navoiy yozadi - "SHodlik oshiruvchi xonanda: g'amni tarqatuvchi sozanda – bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar..." deb xoanda va sozandani ta'rifini keltiradi. YA'ni, ohang

⁵ A.Firdavsiy, «SHohnoma» T., «G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at», 1984 y., 199 s.

u qanday bo‘lmasin insonga yoqadigan bo‘lsa, u ma’naviy ozuqa sifatida insonga ta’sir etadi. “YOqimli ovozu mahorat bilan kuylaydigan xonandadan dard ahlining o‘ti yana alangalanadi. Agar go‘zal bo‘lsa hissiyot ahlining o‘rtasida qiyomat ko‘tariladi. Har bir sozandaning kuyi dardliroq ijro etilsa uning chertishi dardli yurakka qattiqroq ta’sir qiladi...” – deb uning ijrochiligini baholaydi. “Ochiq chehrali xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa dardli odamning kuygan bag‘ridan tutun chiqaradi. Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi hatto toshko‘ngil odimni ham maftun etadi. Xususan o‘zi chalib o‘zi kuylasa ko‘ngil mulkiga qo‘zg‘olon soladi”⁶ - deb cholg‘udan chiqadigan ohangning ta’sirini shunchalar qudratga ega bo‘lishi borasida o‘quvchilarga xabar berayotganligini ko‘rish mumkin.

Bevosita cholg‘ularning sadosi va ularning qudrat kuchi haqida, kitobda quyidagilarni bayon etgan. “Mayxonada kimki may ichishdan ibo qilsa, Nay ovozi bir dilkash navo bilan uni rasvo qiladi-qo‘yadi. Agar kishi may zavqini unutib, ichishdan tortilar ekan, g‘ijjak cho‘ziq nolalar chekib, unga yolboradi va tanbur pardalari maftunkorlik bilan halok etadi, uning halovat pardasini chok etadi. CHang zorlanib bo‘g‘zini cho‘zadi, ud tilining ingrab yolborishi changnikidan ham ortadi. Qachonki rubob boshini erga qo‘yib iltimos qilganda, qo‘buz quloq tutib, kayf safo ohangini tuzadi. Bular bilan barobar qonun va chag‘ona asboblarining nolasini quloqqa eshitilganda, shu payt oydek soqiy qadahlarga may quyib ta’zim bilan uzatsa, parhezdorlikka kim e’tibor beradi yu aql xushning ixtiyorini kim o‘z qo‘lida tuta oladi!?”⁷

Musiqacha cholg‘ulari darhaqiqat ijod ahliing ham azarida chetda qolgan emas. Abdulla Avloniy, Furqat, Erkin Vohidov kabi shoirlarimiz ham bunga o‘z muosabatlarini bildirgan. SHular qatorida zamonamizning shoiri Abdulla Oripov ham rubobning go‘zal nolalarini chiroyli ta’riflaganini guvohi bo‘lamiz:

⁶ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” 30 bet.

⁷ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” 30 bet.

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni ohang?
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am?!

I.1. RUBOB VA UD CHOLG‘U IJROCHILIGI

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston territoriyasida rubob va ud cholg‘ularining ijro amaliyoti, ijrochilik masalalariga nisbatan aniq ma’lumotlar yoritilmagan. Turli davrlarda yaratilgan ommabiy yozma adabiyotlar, mifologiyalar, rivoyatlar, dostonlar va badiiy asarlar albatta insoniyat hayotining badiiy tasvirlanishida musiqa san’ati ham o‘ziga xos o‘rinni tashkil etib kelgan. Bu esa qaysidir darajada musiqa cholg‘ulari bilan ham bog‘liqdir.

Madaniyatning rivoji negizida cholg‘ular ham takomillashib rivojlanib, mukammal sadolantiruvchi cholg‘ular ko‘rinishiga kelgan. Buning zaminida kasbiy ijod ham o‘zini namoyon etganligi tarix zarvaraqlarida bitilgan. Bu borada eng avvalo afsonaviy sozanda Borbad borasida turli badiiy va musiqiy risolalarda bayon etilganligini ko‘rish mumkin. Borbad zamonidan boshlab ud cholg‘usida ijrochilik an‘anasiga, xalq orasida alohida e’tibor qaratilgan. Deyarli barcha sharq xalqlari musiqiy cholg‘ulari tarkibida ud va udsimon cholg‘ular.

Ud cholg‘usi Farobiy ijodida keng qo‘llanilgaligi va tadqiqotlari uchun asos bo‘lganligi xususida fikrlar bayo etiladi. Xususan Farobiy o‘zining “Katta tmusiqa kibtobi” risolasida udning mukammal cholg‘u ekanligi va musiqani tadqiq etishda ud cholg‘usidan keng foydalanganini e’tirof etib o‘tadi.

Ud va udsimon cholg'ular o'zining mukammalligi va ijroda har tomlama qulay va sof ovozing kengqamrovliligi bilan bir qator xalqlar ijrochilik amaliyotina kirib keladi. SHu bois, ud va udsimon cholg'ular evropa musiqa san'atida "Lyutna" deb yuritilgan va keng ommalashgan. Xitoy va shu territoriya xalqlari orasida o'ziga xos shaklda bo'lib "Pipa" nomida yuritilib kelinadi.



Ud cholg'u sozi

ommalashgan torli cholg'ulardan hisoblanadi. Ud cholg'usining undan oldingi namunalari ham kitoblarda zikr etiladi.

R.Qosimov o'zining kitobida udni quyidagicha ta'riflaydi: - "Ud arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. Ud – birinchidan, yog'ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan «Iyd» iborasining ma'lum shaklidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyatini bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin. Udning dastlabki nomi «barbad» bo'lganligini ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib, bar – qomat, bad – o'rdak ma'nolarida keladi. Barbad qorni katta va dastasi kalta musiqa

Ud cholg'usi azal-azaldan musiqa san'ati amaliyotida o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. CHolg'u tarixda ko'proq musiqa sohasining nazariy masalalarini idroklash va tushuntirish qo'l kelgan. CHolg'uni o'rganishda torlari hamda pardalaridan keng foydalanilgan. **Ud**⁸ - torli tirnab chaladigan cholg'ularning eng qadimiysi bo'lib, dunyodagi xalqlar orasida eng keng

⁸ Ud sozi xususida: I.Rajabovning «Mašomlar masalasiga doir» (14-32 betlar) kitobida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

asbobidir”⁹. YOzma mabalarga asoslangan ta’rif, darhaqiqat barbad cholg’usining el orasida keng ommalashagligini amoyon qiladi.

Tarixda “Barbad” iborasi, ijrochilik amaliyotida mashhur bo’lgan. Qadimiy va afsonaviy sozanda Bardabning nomi ham aynan shu cholg’uga nisbatan taxallus sifati qo’yilganligi kitoblarda, ayniqsa Firdavsiyning “SHohnoma” kitobida ko’p yoritilgandir.



Barbad cholg’usi

Ijrochilik amaliyotida ud nomi bilan mashhur bo’lgan cholg’u, turli xalqlarda ham o’ziga xos shaklga ega bo’lgan va u cholg’ular udsimon cholg’ular deb yuritilgan. mavjud bo’lgan. Ajam xalqlari-ud, Xitoyda-pipa, Ovrupada-lyutiya, Arablarda esa al-ud nomlari bilan atalib kelingan.



Pipa

CHolg’u sozini ud atalishiga, sozning yasaladigan daraxti asos bo’lganligi kitoblarda qayd etiladi. Xususan, cholg’u arablar mamlakatida o’sadigan ud daraxtidan yasalgan. Daraxt xushbo’y hid taratuvchilik xususiyatiga ega bo’lgan. Ud o’tmishdan ijrochilikda keng qo’llanilgan, O’rta asrlarda Farobiy, Urmaviy kabi olimlarning



Pipa ijrochisi

⁹ R.Qosimov, «An’anaviy ijrochilik», T., 2007 y. 13 bet

musiqashunoslik ilmiy tadqiqotlari uchun asos vazifasini o'tagan. XVI-XVII asrlarga kelib ud cholg'usini o'rnini boshqa cholg'ular egallaganligi sababli amaliyotda kam uchragan.



*SHarq xalqlarida ud cholg'u
sozandasining ijro holati.*

Xususan, O'zbekistonda ud cholg'u sozi, XX asrning 70-80 yillariga kelib, a'anaviy ijrochilik amaliyotida qayta tiklandi. CHolg'ular ansambli tarkibidan munosib o'rinni topdi. YAkkanavoz cholg'u sifatida ommalashishinig sababi, Oliy ta'lim darajasida ta'lim jarayoniga kiritildi. Mutaxassislar etishib chiqib xalqimiz orasida keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Ud cholg'usi va uning ijrochiligini O'zbekistonda qayta tiklanishda O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, ustoz va mohir sozanda Rifatilla Qosimovning xizmatlari alohida ahamiyatga sazovordir.


Ud cholg'usining o'ziga xosligi uning past registrdagi kuchli ovozga egaligidadir. Bunday ovoz taralishi uchun bo'ljallangan shakl muhim ahamiyatga egadir. CHolg'uning ulkan rezonatorli katta kosasi va pardalar boylanmagan qisqa dastasi mavjud. Kosa odatda, bir-biriga mutanosib holda yopishtirilgan 10-12 ga yaqin qovurg'asimon taxtachalardan tayyor-lanib yasaladi va ustki qismiga qopqoq yopishtiriladi.



Qopqoqda ovozni harakatini ta'minlab beruvchi uchta teshiklar bo'lib, ular naqshlar bilan bezab yasaladi. CHolg'uning xarragi ham qopqoqga zich holatda yopishtirib qo'yiladi.

CHolg'u dastasi kosaga mahkam biriktirib qo'yiladi. Uning boshlang'ich qismida quloqlar o'rnatiladigan qismi mavjud. Unda 11 ta torni tortish uchun mo'ljallangan quloqlar joylashgan (5 tasi o'ng va 6 tasi chap tomonida).

Ud sozi (risolalarda yozilishicha) 5 juft va 1 ta toq torlardan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi torlarining orasi kvarta intervaliga sozlanadi. To'rtinchi va beshinchi, beshinchi va oltinchi torlar orasi katta sekunda intervali, ya'ni 1 ton oralig'ida sozlangan. Zamonaviy o'zbek ud cholg'uchiligida esa, maqom kuylarini ijro etishda qulay bo'lishini inobatga olgan holda to'rtinchi va beshinchi torlar oralig'i sekundadan kvintaga o'zgartirilgan. Ayni paytda ud cholg'usi quyidagicha sozlanadi:



Ud cholg'usiga torlar avvallari ipdan eshilib tayyorlangan holda taqilgan. Hozirgi davrga kelib ud cholg'usining yuqoridan 1, 2, 3- torlari sun'iy ichakdan yoki kaprondar taqiladi. 4,5 va 6-torlar pishitilgan ipak ustidan mis sim o'ralgan holda tayyorlanadi. CHolg'u maxsus tayyorlangan mezrob bilan ijro etiladi.

Rubob - o'zbek an'anaviy chertib chalinadigan cholg'u sozlaridan biridir. O'zbek an'anaviy ijrochilik amaliyotida rubobining ikki turi




Qashqar rubobi

Ushbu cholgʻu oʻbek anʻanaviy musiqa ijrochiligi amaliyotiga yangi kirib kelgan cholgʻulardandir. Qashqar rubobi XX asrning boshlarida Qashqardan keltirilgan rubobning takomillashgan varianti sifatida ijro amaliyotida ommalashgan.

Tarixiy manbaʼlarda rubobning bir qator turli mavjudligi xususida bir qator maʼlumotlar ketrilib oʻtilgan. Rubobning turlari, nomlanishlari va hattoki ularning boshqa cholgʻularga nisbatan aytilganligiga ham guvoh boʻlish mumkin. Jumladan uning nomlanishida ham Rubob, rebab, rebek, rabob, rabboba kabi iboralarni koʻrish mumki. YOKi “rebab” cholgʻusi arab xalqining kamonli cholgʻusi boʻlib kelgan.

Markaziy Osiyoning oʻzida rubob cholgʻusining bir qator turlari mavjud. Afgʻon rubobi, Kashmir rubobi, Buxoro rubobi, Toshkent rubobi va h.k.

mavjud – afgʻon rubobi va qashqar rubobi. Afgʻon rubobi koʻproq akademik ijrochilik amaliyotida qoʻllaniladi. Anʻanaviy rubob esa aynan Qashqar rubobi nomi bilan ijro amaliyotida mashhur boʻlgan cholgʻu hisoblanadi.




Rebek



Afgʻon rubobi turlari.

Rubob cholgʻusining oʻziga xos rivoji va ijrochilik amaliyotida tutgan oʻrni risolalarda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra oʻziga xos tarixiy jarayonni oʻtagan deyish mumkin.

Xususan Darvesh Ali CHangiy oʻz risolasida rubob haqida quyidagi maʼlumotlarni keltirgan. Rubob - Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida (1200-1220) keng ommalashgan va 4 ta ipli va 1 ta kumush torlari boʻlgan¹⁰ - deb keltiradi. Davrlar osha rivojlannib, takomillashib XX asrga kelib hozirgi koʻrinishda oʻzbek anʼnaviy cholgʻusi sifatida shakllangan.



Kashmir rubobi.




Oʻzbekistonda ishlangan namunalari


Qashqar rubobidatda ikki qismdan iborat boʻlib, kosaxona va dastadan tashkil topgan. Uning kosasi butun daraxtdan oʻyilib (asosan tut, oʻrik va yongʻoq daraxtlaridan tayyorlangan) va unga hayvon terisidan parda qoplangan. Zamonaviy jarayonda esa rubobga qoplanadigan pardalarning turlari koʻpaygan. Ruboblarga parda molning yurak pardasidan va baliq terisidan tortiladigan boʻlindi. Kosani dasta bilan ulangan joyining ikki tomonida yoysimon dekorativ shoxlar oʻrnatilgan. Ular kosa bilan birga oʻyilib ishlaniladi. Rubob dastasining boshlanish qismida 5 ta qoʻloqlar joylashgan. Dastaga 21-23 tagacha misdan tayyorlangan maxsus pardalar xromatik tarzda oʻrnatiladi. Rubobning 5 ta tori boʻlib, 1 tasi ichakdan va 4

¹⁰ Darvesh Ali CHangiy, «Musihiy risola», (prof. A.A.Semyonov), T., 1946 y. s. 18-19.

tasi po‘lat simdir. 1 va 2 chi torlar ikkilangan tartibda joylashadi va quyidagicha kvarta-kvinta oralig‘ida sozlaniladi:



Rubobning ijroviy diapozoni 3 oktava oralig‘ini qamrab oladi. Uning pardalari xromatik tarzda joylashgan:



Rubob maxsus mediator yordamida ijro etiladi.

CHolg‘uning zamonamizda keng targ‘ib etishda va har bir o‘zbek oilasida munosib joy olshida Muhammadjon Mirzaevning xizmatlari kattadir. SHu bilan birga uzbek rubob ijrochiligi rivojiga o‘z ijodlari bilan munosib hissa qo‘shgan mohir san’atkorlar qatoridan Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Adham Xudoyqulov, Qobuljon Usmonov, Toxir Rajabiy, SHovkat Mirzaev, Rifatilla Qosimov, SHomahmud SHoraxmetov kabi mohir rubobchi sozandalar munosib o‘rin olgan.



I.2. RUBOB VA UD CHOLG‘U IJROCHILIGIDA SHAKLLANGAN USTOZ SOZANDALAR

Insoniyatning nafosatli va go‘zal hayotini ohanglarda aks ettirishning o‘z mushkilliklari mavjud. Avvalo insonning o‘z iste‘dodi bo‘lsa, ikkichisi uning xohishidir. Uchinchi tamoni kasbga bo‘lgan munosabatning shakllanishi va bu kasbga mehr qo‘yilishidir. Eng muhimi uning sevgib ardoqlar hayotining mazmuniga aylantirish bilan bog‘liqdir. Bu bilan shug‘allanish esa, pirovardida ruhiyat ozig‘iga aylanadigan sehrli ohanglarni tarannum etuvchi namoyanda bo‘lib etishi bilan izohlanadi. Uning bir umr chekkan barcha mushkilliklarini hayot mazmuniga aylantiradi. Ularning ijodi esa insoniyat ma‘naviyati, ruhiyati uchun xizmat qiluvchi musiqiy merosga aylanadi.

Musiqaning go‘zalligi va mukammalligi bir qator omillar bilan bog‘liqdir. Ohangni sirli, go‘zal va maftunkor shakl topishida bu omillarning barchasi muhimdir. Musiqa sadolarini jonlantirgan ijro haqiqiy “samo” ekanligini namoyon eta bilish kerak. Sozandaning cholg‘usi va uning ijrosining mukammalligi, uning har tomolama mohirligi, bilimligidan dalolat beribturadi. O‘zbek musiqa merosimizda ana shunday mazmunli yashab ijod etgan namoyandalar talaygina. To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G‘inijon Toshmatov, Ahmadjon Umrzoqov, Ashurali YUsupov, Usta Ro‘zimat Isaboev, Risxi Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzaevlar shular jumlasidandir. Ana shunday mohir va ustoz sozadalarining ijodi kamoloti bilan xalq musiqiy merosi kamol toopib, rivojlanib kelayotganligini qayd etib o‘tishimiz lozimdir.

O‘zbek xalq musiqa ijrochilik amaliyotida, o‘z faoliyati va barakali ijodi bilan xalqimiz nazariga tushgan sozandalar bir qaraganda ko‘pga o‘xshab ko‘rinadi. Lekin, xalq an‘aalarini saqlovchilari, o‘z ijodi bilan milliy an‘analari davom ettirishga, ularning negizida o‘z ijro uslubini

shakllantirishga va oxir oqibat o'zining ketidan keladigan avlodlarni ergashtirish xususiyatiga ega bo'lgan san'atkorlar darhaqiqat sanoqlidir. Ijrochilik amaliyotida ularning har birini o'z o'рни, amaliyotda erishgan ijro uslubi, musiqa merosimizga qaysidir o'rinda qo'shgan hissasi mavjud. SHuning uchun bo'lsa kerak, musiqa san'atimizning fidoiy ijodkorlari doimo xalqimiz tomonidan e'zozlanib, ularni yaratgan ijro uslublari ustoz-shogird an'analari negizida yashab, rivojlanib boraveradi.

MUHAMMADJON MIRZAEV

Muhammadjon Mirzaev o'z ijodiy faoliyati bilan yorqin iz qoldirgan, qashqar rubobini amaliyotga joriy qilib keng ommalashishiga sababchi bo'lgan, rubob ijrochiligida alohida ijro maktabini yaratgan, musiqa merosimizning ko'pdan-ko'p (300 dan ortiq) betakror musiqiy namunalar bilan boyitgan zabardast san'atkordir.



Ustoz san'atkorning musiqaga kirib kelishining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U 1913-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Muhammadjon yoshligidan musiqaga mehr qo'yadi. U Toshkent

to'qimachilik kombinatiga ishlab yurgan kezlari, temir yo'lchilar klubida tashkil topgan havaskorlik to'garigiga qatnashadi va rus xalq cholg'ularidan biri bo'lgan mandolina cholg'usida chalishni o'rganadi. Mandolina cholg'u ijrochiligi uning musiqaga bo'lgan mehrini yanada oshiradi. Ana shu bohona bo'ladi-yu, qalbidagi musiqaga bo'lgan mehr va umid uni 1936-yili O'zbek davlat filarmoniyasiga etaklaydi va filarmoniya qoshida tashkil etishgan xalq cholg'ulari ansambliga ishga kiradi.

Muhammadjon Mirzaev filarmoniyada ishlash jarayonida mashhur san'atkor To'xtasin Jalilov bilan bo'lgan muloqoti uning hayotida keskin burulish hosil qiladi. U o'z hayotini musiqaga bag'ishlashga ahd qiladi va san'atni tanlaydi. U birinchi galda ansamblida o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Ansambl ishtirokchilari turli xalq cholg'u sozlarining ijrochilari, xonanda va raqqosalardan iborat bo'lsada, har bir ishtirokchining o'z vazifasi va ansamblida o'rni bor edi. SHu maqsadda Muhammadjon ham o'z o'rnini topishga harakat qiladi. SHunda ansambl rahbari To'xtasin Jalilov bir fikr bildiradi. Qashqarlik musiqachilar ijro etayotgan cholg'ulardan biri qashqar rubobini o'zlashtirish masalasida o'ylab ko'rishni taklif etadi. Bu taklif sozandalik ishqida ushbu dargohga kelgan va ijod sari talpinayotgan Muhammadjonga juda ma'qul keladi va bu ishga jiddiy kirishadi.

Muhammadjon Mirzaev ko'rgan qashqar rubobi tabiatan o'ta keskin ovozli cholg'u edi. CHolg'uning pardalari ham diatonik uslubga (xuddi tunbur pardalari kabi) moslab boylangan edi. CHolg'u soz sifatida o'ziga xos shakli, ovoz tembri va ijro etishdagi cholg'uga xos yo'llariga ega edi. Lekin, ijroviy texnik jihatlari va tovushqator tizimlari uning zamonaviy cholg'ular talabidagi imkoniyatlarini to'la ifoda etishda mushkilotlarga duch keltirardi. SHuning uchun bo'lsa kerak Muhammadjon Mirzaev o'zbek cholg'ular ustasi sozgarlar Usta Usmon Zufarov bilan birgalikda zamonaviy uslubda qayta ishlashga kirishadilar. Ikki san'at namoyandasining say'i harakatlari bilan ish olib boriladi. CHolg'uning 7 pardaga asoslangan tovushqator pardalari 12 pardali tovushqatorga moslanadi. CHolg'u dastasidagi boylam pardalar esa

mis pardalarga o'zgartiradilar. Natijada har qanday musiqiy namunalarni texnik darajalaridan qat'iy nazar mushkilliksiz ijro etish imkoniyatlariga ega bo'lgan cholg'u sozi bunyodga keladi. Ovoz tarovati jihatidan jarangdor va yoqimli, ijroviy jihatdan har tomonlama mos cholg'u sifatida ijrochilik amaliyotiga kirib keladi.

O'zbek xalqi musiqiy cholg'ularga boy, ularning har biri o'zining mukammalligi va o'ziga xos sirli tarovatliligi bilan ajralib turadi. Qashqar rubobi aynan shu davrlardan boshlab o'zbek xalq cholg'ulari qatoriga kirib keladi. Uning xalq cholg'usiga aylanishida aynan Muhammadjon Mirzaevning juda katta xizmatlari mavjud. Avvalo Muhammadjon Mirzaev rubobning ijrochilik amaliyotiga olib kirdi va uning jozibador ijro talqinini shaxsiy ijrosida namoyon etib berishga erishdi.

Muhammadjon Mirzaev sozanda sifatida avvaliga rubob ijrochiligida o'ziga xos ijro uslubini yaratib, ijrochilik amaliyotida xalqqa namoyish etishga muyassar bo'ladi. Avvaliga yakkanavozlikdagi rubob ijrochiligi bilan, keyinchalik qo'shrubob, ya'ni o'g'li va shogirdi SHovkat Mirzaev bilan birgalikdagi ijrosi bilan o'zbek shinavandalarini o'ziga rom etadi. Rubob cholg'usi Muhammadjon Mirzaev ijrosi orqali xalqimizning har bir xonadoniga kirib bordi.

Rubob cholg'usining keng ommalashishi va xalqning sevimli cholg'ulari qatoriga kirib kelishining yana bir sababi, bu Muhammadjon Mirzaevning bastakorlik faoliyatidir. Rubobning barcha xususiyatlarini ko'rsatadigan zamonaviy dilbar kuylar aynan Muhammadjon Mirzaev ijodida yaratila boshlandi. Avvaliga "Gulnoz", "Intizor etma", "Dilbar", "Zavqim kelur", "Dildor I,II", "Orzu dil", "Dilrabo", "Tong", "Jonon", Gulbahor va Tanavor", "Rohat", "Gilos" kabi rubob taronalarini yaratib elga manzur etdi. Ushbu asarlar nafaqat qashqar rubobi uchun yozilgan va rubob ijrochilarini ijro repertuarini boyitdi, balki qashqar rubobi ijrochiligining rivojlanishiga, ijro imkoniyatlarini kengayishiga, ijrochilik madaniyatining yuksalishiga,

qashqar rubobining yangidan-yangi ijro imkoniyatlarining ochilishiga sabab bo'ldi.

Faoliyatida u musiqa san'atining ahamiyatli bo'lgan uch yo'nalishini bir biriga mutanosib holda, uyg'unlashtirib ijod qilishga muyassar bo'ldi.

Rubob ijrochilik san'ati, bastakorlik va ustozlikni o'z ijodiy faoliyati davomida uyg'unlashtirib olib bordi. Bu albatta uning ijodiy samarasinig negizi edi.

Bastakorning yaratgan har bir asari cholg'u ijrochiligiga mosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa "Rohat" kuyi bunga yorqin misoldir. Ushbu asar qashqar rubobida, dutor cholg'usida, chang va changchilar ansamblida ham, qolaversa sozandalar ansambli ijrosida ham o'z jozibasini namoyon etadigan falsafiy asardir.

Muhammadjon Mirzaevning o'zbek xonandalik san'atiga, qo'shiqchilik va ashula ijodiyotiga qo'shgan hissasi alohida ahamiyatlidir. Uning ijodiga mansub asarlar o'ziing originalligi va shu o'rinda milliyligi bilan ajralibturadi.

O'z ijodiy faoliyatida Muhammadjon Mirzaev juda ko'p san'atkorlar uchun kuy, qo'shiq va ashulalar yozib bergan. Ular orasida taniqli xonanda Dilorov Qayumovanning ijro etgan "Uch dugona", "Ey gul", "Oltin sandiq", "Popning popuk qizlari", "Onalar" kabi qator qo'shiqlari o'zining yorqinligi, go'zal taronaga moyilligi bilan alohida ajralib turadi. Bastakorning mumtoz uslubga xos bo'lgan ijodiy namunalari O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov bilan bog'liqdir. O'zining bastakorlik ijodida o'z ashulalarini Farg'ona-Toshket ijrochilik an'analari bilan sug'orishga va alohida original asarlar yaratishga muyassar bo'lgan. SHu bois uning yaratgan ashulalari haligacha o'z mavqeini saqlab etuk hofizlar tomonidan ijro etib kelinadi. Uning Ma'murjon Uzoqov ijrosida mashhur bo'lgan Muqimiy so'zlariga "YAkka bu Farg'onada", "Suvrating", "YOlg'iz", "Ayrilmasun"; Furqat so'zga bastalangan "Yo'lingda", "SHo'xi janonim mening", "Qachon bo'lg'ay" va "YOr istab"; Sobir Abdulla so'zi bilan "Parvo etib kel";

“SHahloga tushdi, “Ko‘zlaring”; taniqli xonanda Hanifa Mavlonova ijrosida elga manzur bo‘lgan va keyinchalik shogirdlar havasini olgan ”Parvona buldim”, “YUragingni o‘ynatdami”, “Gulchehra yor”, “Tong otguncha, “Husningga bu shaydoni” kabi o‘nlagan ashulalar o‘zbek musiqa merosidan munosib o‘rin oldi.

Muhammadjon Mirzaev o‘zbek bastakorlik an‘anasini munosib davom ettirgan, musiqiy merosga original asarlar bilan hissasini qo‘shgan, ijrochilik amaliyotida yangicha cholg‘u sozini kiritgan va ijrochiligini an‘anaga aylantirgan zabardast san‘atkordir. Uning ijrochilik va ijodiy merosi hozirgi davrgacha alohida o‘rinini namoyon etib kelmoqda. Avvalo qashqar rubobi ijrochiligi bo‘yicha sozandalarning rahnamosi hamda ijrochilik maktabining asoschisi sifatida e‘tiborga loyiqdir. Qolaversa xalqimizning milliy ruhiyati, ma‘naviyatini aks etuvchi betakror kuy va qo‘shiqlar yaratgan ijodkor ko‘rinishida kelajak avlod bastakorlari uchun ibratdir.

Sozandalik faoliyati M.Mirzaevning san‘atkor sifatida elga tanilishida asosiy yo‘nalish bo‘ldi. U o‘zbek xalq kuylarini rubobda maromiga etkazib ijro etib cholg‘uning go‘zal sadosini elga manzur etishga erishdi. Nafaqat o‘zi, balki farzandi va shogirdi SHavkat Mirzaev bilan rubobning jozibasini namoyon etdi. Buning natijasida o‘zbek xalqi rubob cholg‘usini shaydosiga aylandi va har bir xonadonga rubob kirib bordi. Hozirdagi rubobning keng ommaviyligini ilk bosqishlari aynan mana shu san‘atkor Muhammadjon Mirzaev ijodi bilan bog‘liqligi barcha musiqa bilimdonlari, ustozlari tomonidan e‘tirof etiladi. M.Mirzaev rubob cholg‘u ijrochiligidagi yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan bo‘ldi. Bu albatta vaqti bilan mohir ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan)

SULAYMON TAXALOV.

Qashqar rubobi ijrochiligida o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan san'atkor, Sulaymon Taxalovdir. U 1933 yilda Buxoro shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Rubob ijrochiligida Buxoro, ya'ni maqom ijro maktabining namoyandalaridan



saboq olgan va mumtoz ijro uslubiing davomchisidir. Sulaymon Taxalov o'ziga xos ijro texnikasiga, an'anaviy hamda akademik ijro etish usulini mukammal egallagan rubob ijrochilardan biri bo'lgan. 1958-yilda Konservatoriyadagi o'qishni tugatgandan so'ng, qashqar va afg'on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo'yicha shu dargohning o'zida o'qituvchilik faoliyatii olibboradi. Sulaymon Taxalov 1957- yilda Moskvada bo'lib o'tgan yoshlar va talabalarning VI jahon festivalining ishtirokchisidir.

Sulaymon Taxalov rubobijrochiliging akademik hamda an'anaviy yo'nalishida faoliyat olib borgan sozanda hamda pedagogdir. U xalq cholg'ulari ijrochilari butun ittifoq konkursining ishtirokchisi. O'zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. 1980 yillarning oxirida, ya'ni 1988 yili "An'anaviy ijrochilikda milliy bezaklar tasnifoti" mavzusiga bag'ishlan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, san'atshunoslik fanlari nomzodi darajasini olgan.

Sulaymon Taxalov bir necha iste'dodli rubobchilarni tarbiyalab, kamol toptirgan va ularning ko'pchiligi Respublika tanlovlarining sohibi bo'lishgan. Sulaymon Taxalov respublikasmizning ko'plab sozandalar ustози. Toshkent Davlat konservatoriyasining sobiq professori Sulaymon Taxalovning cholg'u ijrochiligi san'atiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Buni uning sinfida ta'lim olib kelgusida etuk sustozlar darajasiga etgan san'atkorlardan ko'rish mumkin. Uning pedagogik faoliyatlari davomida tarbiyalangan sozandalardan Toxir Rajabiy, Rifatilla Qosimovlar an'anaviy ijrochilikda muayyan maktab yaratishga muyassar bo'lgan ustoz sozandalardirlar.



G‘ulomjon Qo‘chqorov

Hurmatli ustoz san’atkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xalk maorifi a’lochisi, “El-yurt xurmati” ordeni sohibi, yuzlagan shogirdlarning ustози G‘ulomjon Quchkorov 1919-yil Toshkent shahrida tavallud topgan. U yoshligidan dutor cholg‘uijrochiligiga mehr qo‘yadi. Ota-onasi o‘g‘illari G‘ulomjonning qiziqishini ko‘rib, 1933 yilda Beshyog‘och dahasida joylashgan musiqa bilim yurtiga o‘qishga beradilar. Bilim yurtida G‘ulomjonga YUnus Rajabiy va Orif Qosimov kabi ustozlardan dutor cholishning an’anaviy uslubini o‘rganadi. Ustoz YUnus Rajabiy shogirdini xalq kuylari, o‘zbek maqomlariga mehri balandligini sezib, imkoni boricha dutorda ularning cholg‘u yo‘llarini o‘rgatadi.

Bilim yurtida u nafaqat dutor, balki tanbur cholg‘usini ustoz Risqi Rajabiydan, g‘ijjak cholg‘u ijrosini Suren Gabrielyanlardan o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi. 1949-yili Toshkent davlat konservatoriyasining o‘zbek xalk cholg‘u asboblari bo‘limiga o‘qishga kirib ta’lim olvadi. G‘ulomjon Qo‘chqorov sozandalik hamda o‘qituvchi sifatida 60 yildan ortiq davr davomida yoshlarga dutor, rubob, tanbur sozlari bo‘yicha saboq berib, muvaffaqiyatli faoliyat olib bordi.

G‘ulomjon Qo‘chqorov sozandalik va murabbiylik bilan bir qatorda o‘ziga xos ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanib borgan. Musiqa ijodiyotining turli janrlariga mansub 50 dan ortiq asarlar yaratgan. G‘ulomjon Qo‘chqorov yaratgan asarlarni ko‘pchiligi nashr etilgan bo‘lib yosh avlodning tarbiyasida, ta’limijarayonida keng qo‘llanib kelinadi. Jumladan: “SHodiyona” T., “G‘ofur G‘ulom” (1982); “Dutor sadolari” T., “G‘ofur G‘ulom” (1987);

“Dutor nolasi” (1992); “Milliy cholgʻularni oʻrganish” (2002); “Oʻzbek milliy sozgarlari” (2007) va boshqalar.

Gʻulomjon Qoʻchqorov ish faoliyatining ustozlik tomolari alohida eʼtiborga loyiqdir. Tajribali pedagog cholgʻu ijrochiligi tarbiyasining barcha yoʻnalishda faoliyatini olib borgan. Ayniqsa, anʼanaviy uslubda va ustoz-shogird anʼanasida bir qator yoshlarni qoʻllariga soz berib tarbiyalashga muvaffaq boʻlganlar. Taiqli sozanda va bastakor Telman Hasanov, mohir sozandalar Gʻulomjon YOqubov, Rifatilla Qosimov, Hasan Azimovlar shular jumlasidandir.

TOHIR RAJABIY

Oʻzbekistoda xizmat koʻrsatgan artist, buyuk maqomdon ustoz, akademik YUnus Rajabiy sulolasining vakili, mohir sozanda va ustoz.



Tohir Rajabiy 1946-yili Toshkent shahrida sanʼatkor oilasida tavallud topgan. Otasi sanʼatkorlarning sardori, buyuk alloma, Oʻzbekiston xalq artisti, akademik YUnus Rajabiydir. Ushbu oila serfarzand va farzandlar turli kasbga mehr qoʻyib kasbining choʻqqisiga erishishga muvaffaq boʻlganlar. Tohir Rajabiy ham musiqaga boʻlgan qiziqishi sababli 1958- yilda Toshkentdagi Glier nomidagi maxsus musiqa maktabiga “Qashqar rubobi” ixtisosligi boʻyicha oʻqishga kiradi. Rubob cholgʻuijrochiligi boʻyicha taʼlim oladi 1964- yili ushbu maktabni bitirib, Toshkent Davlat konservatoriyasiga oʻqishga kiradi. Konservatoriyada oʻqish jarayoni Tohir Rajabiy uchun ijrochilik yoʻllarida haqiqiy shakllanish davri boʻldi. Akademik ijro yoʻli bilan bir qatorda aʼanaviy rubob ijrochiligi anʼanalari ham mukammal oʻzlashtirishga muvaffaq boʻladi.

Maqom ijrochiligi o'zining badiiy talqinga xos bo'lgan mushkilotlariga egali Tohir Rajabiy uchun muammoga aylangani yo'q. Aksincha, maqom ijrochilik an'analari, rubob talqiniga xos yo'llarini egallab, ijrochilik amaliyotida shaxsiy ijro talqinini shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Tohir Rajabiy 1969 yili konservatoriyani muvofaqqiyatli tamomlab, Aisher Navoiy nomli Davlat Akademik katta opera va balet teatrida orkestr artisti lavozimida o'z ijodiy faoliyatini davom ettiradi.

Har bir sozanda, u qaysi cholg'u ijrochisi bo'lmasin o'zining talqinini topishga harakat qiladi. Tohir Rajabiy ham budan mustasno emas. Chunki, iste'dodli rubobchi Tohir Rajabiy ham o'z ijro uslubini shakllatirgan va uning ijro uslubi boshqa sozandalardan farq qiladi. U akademik yo'nalish bilan bir qatorda an'anaviy ijro yo'nalishlarini puxta egallagan san'atkordir. Uning ijodiy jamoalarda faoliyat olib borishi hamda ijrochilikda musiqa ijodiyotining barcha yo'nalishlariga xos asarlarni maromiga etkazib ijro etishi, uning keng ommalashishiga sabab bo'lgan. Ijrochilik faoliyatida u nafaqat Respublikamiz, balki bir qator xorijiy mamlakatlarda ham o'z ijrolari bilan o'zbek musiqasi7i targ'ibotiga hissasini qo'shadi. Xususan U o'z ijodiy faoliyati davomida Polsha, Vengriya, CHexoslovakiya, Germaniya, Belgiya, Iroq mamlakatlarida ijodiy safarlarda bo'lib, konset ijrochiligi bilan qatnashishga muvaffaq bo'ladi.

Sozadaning O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida olib borgan faoliyati ham alohida ahamiyatga loyiqdir. Tohir Rajabiy 1973 yildan boshlab Doni Zokirov nomli O'zbekiston teleradiosi qoshidagi "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri"da faoliyat ko'rsatadi. Zamonaviy professonal kompozitorlik ijodiga mansub asarlarni hamda zamonaviy musiqa namunalarini orkestr bilan birgalikda ijro etib magnit tasmalariga yozishib qoldiradi. Ayniqsa, o'zbek xalq kuylari, qardosh respublika kompozitorlari ijodiga mansub asarlarni ijro etgan namunalari, orkestr jo'rligida ijro etgan sharq va qardosh xalqlarning bir qator asarlarini radioning oltin fodiga yozishga muvofaq bo'ladi. Tohir Rajabiy ijodi davomida samarali ijrochilik faoliyatini olib boradi. 1967

yildan to bugungi kungacha Tohir Rajabiy qashqar rubobida 300 dan ortiq kuylarni yozib qoldirishga muvaffaq bo‘ladi.

Zamonaviy cholg‘u ijrochiligida estradu musiqalarini ijro etish ham an‘anaga aylandi. O‘zbek rubob ijrochiligi rivojining ushbu yo‘nalishida ha Tohir Rajabiy tin qator asarlari mohironi ijro etib o‘z uslubini namoyo etadi. U o‘zbek estrada-simfonik orkestri jo‘rligida jahon va sharq kuylaridan 50 dan ko‘proq, mumtoz qo‘shiqlardan 20 dan ortiq namunalarini O‘zbekiston radiosining oltin fondiga yozib qoldiradi. Ushbu asarlar hozirgasa fondga saqlanib kelinmoqda.

Tohir Rajabiyning o‘zbek musiqa saʼati rivojiga qo‘shgan hissalar davlatimiz tomoidan munosib taqdirlanib kelingan. Xususan u 1990 yilda o‘zbek musiqa ijrochiligining rivojiga katta hissa qo‘shganligi uchun Davlatimizning yuksak mukofoti “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Tohir Rajabiy o‘z ijodiy faoliyatini bugungi kunda ham davom ettirib kelmoqda.



RIFATILLA QOSIMOV

Rifatilla Qosimov Quدراتillaевич 1958 yilning 14 iyul kuni Toshkent shahri YUnusobod tumani “Bodomzor” mahallasida oddiy ishchi Quدراتilla ota oilasida tavallud topgan. 1965 yili Toshkentdagi Aba Ali Ibn Sino nomli 105 o‘rta maktabda boshlang‘ich saboq olgan. O‘qishdan tashqari Ostrovskiy nomidagi madaniyat uyining musiqa to‘garagida rubob chalishni o‘rgana

boshlaydi. Ularning oilasida musiqaga bo'lgan havas, qiziqish tufayli Rifatilla Qosimov dutor, rubob cholg'ularini tez o'zlashtirishiga sabab bo'ladi.

Rifatillani yaxshi maqsadlar bilan zamonasining ibratli va mohir sozandasi va pedagogi G'ulomjon Qo'chqorovning tarbiyasiga beradilar. Toshkentdagi 1-sonli musiqa maktabida ustoz G'ulomjon Qo'chqorovdan rubob ijrochiligini sirlanini o'zlashtirishga kirishadi. So'ngra H.H.Niyoziy nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida afg'on rubob bo'yicha tahsil oladi. Bilim yurtida 1973-77 yillar davomida musiqa ijrochilik sirlarini o'zlashtiradi. 1977 yili ushbu dargohni bitirib Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi va "SHarq musiqasi" kafedrasida tahsil oladi. Konservatoriyada Rifatilla Qosimov an'anaviy rubob ijrochiligi sinfi bo'yicha bo'yicha zamonasining etuk san'atkorlari ta'limini oladi. YA'ni an'aaviy ijro yo'nalishi bo'yicha, qashqar rubobi ixtisosligini professor Sulaymon Taxalov rahbarligida tahsil oladi.

Rifatilla Qosimov 1982 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasini muvaffaqiyatli tugatib, konservatoriya va kafedra tavsiyasiga ko'ra konservatoriyada o'qituvchi sifatida o'zining pedagogik ish faoliyatini boshlaydi.

Rifatilla Qosimovning o'zbek musiqa san'ati rivojida olib borayotgan faoliyati serqirradir. Rubob va ud cholg'ularining ijro amaliyoti, uning ilmiy o'rganish mezonini zamonaviy rivojlantirish, musiqiy merosni o'zlashtirish va an'anaga mos holda targ'ib etish, hamda o'tmish ustozlar an'alariga munosib yangi avlodni tarbiyalash. R.Qosimovmusiqadan ta'lim olib bilan birgalikda 1972 yildan boshlab o'zining serqirra ijodini boshlagan.

SHu davrdan boshlab R.Qosimov ijrochilik faoliyati bo'yicha nafaqat respublika balki xorijiy mamlakatlarda ham samarali tarzda davom ettirib kelmoqda. Rifatilla Qosimovning ijrochilik mahorati ustozlar a'analarii davom ettirishda amoyon bo'ladi. U 1983 yili ilk bor utkazilgan yosh maqom ijrochilarining 1 respublika tanlovida ishtirok etib tanlov g'olibi bo'ladi. SHu

yili Toshkent gramstudiyasida rubob va ud cholg'ularida xalqimizning mumtoz va jahon xalqlarining kuylari dan ijro etib yozdirishga muvaffaq bo'ldi. Uning "Tasnifi Dugoh", "Garduni Dugoh", "CHapandozi Bayot", "Mushkiloti Dugoh talqincha (mo'g'ilcha)si", "Saraxbori Dugoh" kabi asarlarni rubob cholg'usida: "CHashmi SHahlo", "Bog'da yor kezganda", "Muxammasi Mavlon", "CHapandozi Qalandan", "Samoi Dugoh" kabi kuylarni ud cholg'usi ijrosidagi yozuvlar haligacha radio to'lqinlari orqali yangrab turadi.

R.Qosimovning pedagogik faoliyati 1980 yildan boshlangan va o'tgan 30 yildan ko'proq vaqt davomida 100 dan ortiq sozanda va xonandalarga an'anaviy ijrochilik yo'nalishi bo'yicha saboq berib kelmoqda. Ulardan 10 dan ortiq shogirdlari Respublikamizning nufuzli mukofotlariga sazovor bo'ldilar. Jumladan, Maqom ijrochilarining Respublika va Mintaqaviy tanlovlarining g'oliblari: Maysara Imomova (1987), Maxfuza Karimova, Nodirbek Xayrullaev (1991), Muhabbat Mirzaeva (1995), Gulsara G'oyipova (1999), Gulzoda Xudoynazarova (2003); YOsh iste'dodlari, ya'ni navnihollarni qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'sis etilgan "Nihol" mukofoti sovrindorlari: Gulzoda Xudoynazarova, Dilnura Mirzaqulova (2003), Gulsanam Mamazoitova (2004); O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist faxriy unvoni bilan Abdulhay Karimov (1996), Dilnura Mirzaqulova (2004), Gulsanam Mamazoitova (2006), O'zbekiston xalq artisti Gulsanam Mamazoitova (2013), Samarqandda an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "SHarq taronalari" Xalqaro qo'shiq festivalining laureati va 1 o'ringa – Nodira Pirmatova (2005), Dilnura Mirzaqulova (2009)lar sazovor bo'ldilar.

Rifatilla Qosimov faoliyatida ilmiy-uslubiy, bastakorlik, xonandalik va sozandalik sohalarida o'z samaralarini namoyon etgan. Uning ijrosida ko'pdan-ko'p musiqa namunalari va o'zi ijod etgan asarlar O'zbekiston Radiosining oltin fondiga yozilgan, gramplastinkalarga yozilgan. Ilmiy-uslubiy faoliyatida "Rubob navolari", "An'anaviy rubob ijrochiligi", "Ud",

“An’anaviy tanbur ijrochiligi” va “An’anaviy ijrochilik” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan. Bu darslik va o‘quv qo‘llamlar Respublikamizning Oliy va O‘rta maxsus kasb hunar muassasalarida o‘qituvchilar, talabalar va o‘quvchilar tomonida qo‘llanilib kelinmoqda. Konservatoriyada ko‘p yillardan beri faoliyat olib borib, respublikamizning musiqa san’ati rivojiga, kadrlar tayyorlashlash ishiga samarali hissa qo‘shib kelmoqda. Hozirda mohir san’atkor, pedagog Rifatilla Qosimov O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochilik” kafedrasini mudiri, professori lavozimida ustozlik faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

SHAVKAT MIRZAEV

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining faxriy professori ustoz sa’atkor SHavkat Mirzaev 1942-yilning 10- fevralida Toshkent shahrida mashhur sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzaev oilasida tavallud topgan. U rubob ijrochiligi saboqlarini o‘zining otasi va ustozini bo‘lgan Muhammadjon Mirzaevdan oladi. Ustozining maktabining birinchi davomchilaridan hisoblanadi.



SHavkat Mirzaev ustozi (va otasi) Muhammadjon Mirzaev

bilan konsert dasturida

YOshligidan rubob ijrochiligining an'aaviy yo'nalishini puxta egallagan SHavkat Mirzaev Toshkent davlat konservatoriyasida endigina ochilgan SHarq musiqasi kafedrasiga o'qishga kiradi. Ushbu kafedraning birinchi talabalari qatorida oliy ta'lim muassasasida ta'lim oladi. Konservatoriyada u taniqli san'atkor Faxriddin Sodiqovdan ta'lim oladi. Ushbu yo'nalishda konservatoriyada saboq olib, faoliyatini asosan an'anaviy uslubda davom ettiradi. U konservatoriyani sharq musiqasi mutaxassisligi bo'yicha tugatgandan so'ng, dastlab konservatoriyada o'qituvchi sifatida faoliyat olib boradi. Uning sinfida saboq olib musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha katta muvaffaqiyatlarga etrishgan sozanda Abduva Abdurashidovdir. Abduvali Abdurashidov Tojikiston xalq artisti, maqom ijrochiligida o'zining ijro uslubiga ega bo'lgan san'atkordir.

1980 - yillarda O'zbekiston teleradio kompaniyasi qoshidagi "Maqomchilar ansambili"ning badiiy rahbari, so'ngra "O'zbeknavo"ga konsert birlashmasiga qarashli "Munojot Yo'lchieva" guruhiga rahbarlik qiladi.



SHavkat Mirzaev shogirdi mohir xonanda

Munojot Yo'lchieva bilan

SHavkat Mirzaev rubob cholgʻusi ijrochilik amaliyotida oʻzining ijro uslubiga ega boʻlgan sanʼatkordir. Oʻzijodida afaqat sozandalar, balki bir qator xonandalarni tarbiyalab taʼlim bergan ustozdir.

ADHAM XUDOYQULOV

Toshkent shahrida tavallud topgan. YOshligidan rubob ijrochiligi bilan shugʻullanadi va avvaliga musiqa toʻgaragida keyinchalik H.H.Niyoziy nomidagi musiqa bilim yurtida ijrochilik sirlarini oʻzlashtiradi. A.Xudoyqulov Toshkent davlatkonservatoriyasi xalq cholgʻulari boʻlimida tahsil oladi. Bu musiqa maskmanida u qashqar rubobi ixtisosligini mohir ustoz, prfessor S.M.Taxalov rahbarligida exgallaydi. Ustozidan har ikki yoʻnalishga xos boʻlgan ijrochilik uslubini egallashga harakat qiladi. Natijada mohir ijrochi sifatida saboq oladi va 1963 yilda konservatoriyaning tamomlaydi. Oliy dargohdan soʻng A.Xudoyqulov ijrochilik, yaʼni sozandalik faoliyatini mavaffaqiyat bilan davom ettiradi. Bir qator ijodiy jamoalarda ishlaydi. Ayniqsa uning maqom ansamblidagi faoliyati ustozona ijrochilikda muayyan yutuqlarga erishishiga sabab boʻldadi. U darhaqiqat qashqar rubobi ijrochiligida oʻz oʻrniga ega boʻlgan mohir sozandadir.

Oʻziga xos ijro uslubiga ega boʻlgan bu sozanda ijro etgan har bir kuy texnik jihatdan murakkabligi, jozibasi, toʻlaqlonligi bilan sozandalar va tinglovchilar diqqatiga sazovor boʻlib kelmoqda. A.Xudoyqulov qashqar rubobi cholgʻusida ijro etgan bir qator asarlari Respublika radiosi fondiga yozib olingan va muntazam tarzda radio toʻlqinlar orqali tarannum etilib kelinadi.

Qobiljon Usmonov
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
artist, dotsent



Qobiljon Usmonov 5-may 1936 yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. 2-jaxon urushi tugaganidan keyin 1946 yili o‘rta maktabda o‘qib tax‘lim oladi.

1948 yildan pionerlar saroyiga borib musiqa to‘garagiga qatnashadi. To‘garakda Axmad Odilovdan soz chalishni o‘rganadi. 1952 yili Glier nomidagi musiqa maktabiga o‘qiy boshlaydi. Qobiljon musiqa maktabini 1956 yili tamomlaydi. Va o‘sha yili Hamza Hakimzoda Niyoziy nomli musiqa bilim yurtini 4-kursiga o‘qishga kirdi va 1957 yil muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkentdagi filarmoniya qoshidagi “Ashulla va raqs” ansambliga ishga taklif qilinadi. 1959 yil Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘zbek halq cholg‘u asboblari kafedrasiga o‘qishga kiradi.

U erda domla Sulaymon Taxlov sinfida ta‘lim oladi. SHu yilni o‘zida 1959 yili Qobiljon O‘zbekiston televedenie va radio eshittirish davlat komiteti qoshidagi o‘zbek halq cholg‘u asboblari orkestriga sozanda rubobchi bo‘lib ishga kiradi. Qobiljon ko‘p yildan beri ijrochilik mahoratidan foydalanib 1975 yili o‘zbek rubobchilardan birinchi bo‘lib “Boshlang‘ich rubob darsligi” kitobini yozadi. Bu kitoblar Pedagogika kollejlari, musiqa maktablari uchun mo‘ljallangan. Qobiljon ko‘p yildan davomida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti, musiqa fakultetida dars beradi.

U 1964 yildan boshlab 1995 yilgacha ijrochilikdan tashqari yoshlarga musiqa sirlarini o‘rgatib, juda ko‘plab shogirdlar tayyorladi. Ular Respublikamizni barcha viloyatlarida dars berib kelishmoqda. Qobiljon juda ko‘p shaharlarda festival va dekadalarda qatnashib keldi.

Jumladan: 1956 yili Moskvada VI-jahon yoshlar festivalida; 1959 yili Moskvada o‘zbek adabiyoti va san’ati dakadasida; 1962 yili Xelsinkida VIII-jahon festivalida; 1966 yil Bolgariyada o‘zbek adabiyoti va san’ati dakadasida qatnashdi. Keyinchalik Belarusiyada bo‘lib o‘tgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dakadasida Tojikistonda, Qozog‘istonda, Polshada, Afrikaning “Mali” shahrida bo‘lib o‘tgan konsertlarda qatnashib, o‘zbek milliy san’atining shuhratini olamga tanitishda katta hissa qo‘shdi. 1989 yili Qobiljon Usmonovga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni berildi. 1995 yili “Dotsent” ilmiy unvoni berildi. Qobiljon Usmonov bastakorlar uyushmasining a‘zosi.

Qobiljon Usmonovni beshta farzandi bor. To‘rt qiz, bir o‘g‘il. Hozirda Dilbar - Toshkent Pedagogika kollejida bosh o‘qituvchi lavozimida ishlaydi. 1975 yil “Boshlang‘ich rubob darsligi”, 1984 yili B.Mirzaaxmedov bilan birgalikda ikkinchi “Boshlang‘ich rubob darsligi”ni yozishdi. 1998 yil “Yakka musiqa darsligi”ni yozadi, 2004 yil Lotin alifbosida yangi “Boshlang‘ich darslik”ni yozdi, 2006 yil “Musiqa darsligi”ni yozib nashr etadi.

**SHomahmud
SHorahmedov**



O‘zbek rubobijrochiligi san’ati namoyandasi, mohir sozanda va pedagog SHomahmud SHorahmedov 1962-yil 11-iyunda Toshkent shahrida

san'atkor oilasida tavallad topgan. Otasi SHone'mat SHorahmedov O'zbekiston televideniyesi va radiosi qoshidagi uyg'ur ansamblida xonanda sifatida faoliyat olib borgan mohir xonanda. U musiqa savodini avval Toshkent shahridagi Tolibjon Sodiqov nomli 1-bolalar musiqa maktabida qashqar rubobi bo'yicha saboq oladi. SHomahmud musiqa maktabida rubob cholg'usi bo'yicha ustozlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G'ulomjon Qo'chqorov, Xudoyberdi Qosimovlar sinfida oladi.

SHomahmud SHorahmedov 1977-yili H.H.Niyoziy nomidagi Toshkent Davlat musiqa bilim yurtining "Xalq cholg'ulari" bo'limiga o'qishga kiradi. U musiqa bilim yurtida ustoz san'atkor Sulaymon Taxalov sinfida qashqar rubobida ijrochilik sirlarini o'zlashtiradi. 1981-yili musiqa bilim yurtini muvaffaqiyatli tugatdib, shu yili Toshkent Davlat konservatoriyasining «SHarq musiqasi» kafedrasiga o'qishga qabul qilinadi. U konservatoriyada ham ustoz Sulaymon Taxalov sinfida rubob cholg'usi ijrochilik sirlarini, ya'ni, endi an'anaviy rubob ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha ijro amallari o'rganadi. Besh yil davomidagi konservatoriya ta'limida u SHashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari va bastakorlar ijodiga mansub musiqiy asarlardan namunalar o'rganadi va ijro repertuarii shakllatiradi.

SHomahmud SHorahmedov 1986-yili konservatoriyani muvaffaqiyatli tugatib, avvaliga Guliston davlat musiqa bilim yurtida o'qituvchi lavozimida pedagogik faoliyatini boshlaydi. 1989-yilda esa konservatoriyaning "SHarq musiqasi" kafedrasiga ishga qabul qilinadi. SHomahmud SHorahmedov o'qituvchilik faoliyati davomida bir qator sozandalarni tarbiyaladi. Abdug'affor Rahimov, Ziyoviddin Mullajonov, Bahodir Matchanov, Baraka O'lmasov, Qobil Xalilov, Mansur Voisov, Zafar YOqubov kabi mohir sozandalar shular jumlasidandir. SHogirdlaridan Abdug'affor Rahimov, Qobil Xalilov va Mansur Voisov YUnus Rajabiy nomidagi Respublika maqom ijrochilari tanlovining g'olib va sovrindorlari bo'lishga muyassar bo'ldilar. Uning rahbarligidagi talaba sozandalar ansambli 2003-yil

o‘tkazilgan tanlovda 1-darajali diplom va laureatlik unvoniga sazovor bo‘ldilar.

SHomahmud SHorahmedov o‘z ijrochilik san’ati bilan nafaqat Respublikamizda, balki bir qator xorijiy (Turkiya, Italiya, Germaniya kabi) mamlakatlarda ijodiy safarda bo‘lgan. U sozandalik bilan birga xonandalik yo‘nalishida ham bir qator mumtoz ashulalardan amualar, lirik, zamonaviy qo‘shiqlar kuylab, san’atsevar xalqimiz qalbidan joy olgan. SHomahmud SHorahmedov repertuaridan o‘rin olgan “So‘lim”, “Yig‘layman”, “Topolmasman”, “YAngi oy chiqqan kecha” singari qo‘shiqlar radioning musiqiy yozuvlar “Oltin xazina”sida mavjudligi fikrimizning yorqin dalilidir.

SHomahmud SHorahmedov o‘qituvchilik, ijrochilik faoliyatlari bilan bir qatorda ilmiy-uslubiy faoliyatini ham olib boradi. CHorak asrdan ko‘proq vaqd davomida u bir qator ilmiy-ommabop maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar nashr etishga muvaffaq bo‘lgan. Jumladan, 2005-yili “Maqom yo‘llaridagi kuylar va mashqlar to‘plami” nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr etildi. SHomahmud SHorahmedov 2006-yilda “Dotsent” ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi va O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda

MANSUR VAISOV



Mansur Vaisov 1979 yil 29 mart Xiva shahrida tug‘ilgan. Xiva shahridagi A.Otajonov nomli 5-sonli bolalar musiqa maktabida Meliboy Abduraimov, Matyaqub Abdullaev, Nazirboy Qurbanovlar qo‘lida tahsil olgan.

1992 yilda bo‘lib o‘tgan M.Qoriyoqubov nomli Respublika “YOsh ijrochilar” qo‘rik tanlovi g‘olibi bo‘lgan.1994-yili o‘rta va musiqa maktabini tamomlab, M.Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Bilim yurtida ustozlari Bahodir Matchonov, Madrahim YOqubov, Qadamboy Musaevlardan tahsil oladi.

1999 - yili Urganch musiqa bilim yurtini tamomlab, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochilik” kafedrasiga o‘qishga kiradi. Konservatoriyada u professor Rifatilla Qosimov sinfida ta’lim oladi. SHu bilan birga u ushbu dargohda Xalq hofizlari Mahmudjo Tojiboev va Quvondiq Iskandarov, professor Matnazar Xudoynazarovlardan an’anaviy musiqa merosiiijrochiligi sirlaridan saboq oladi.

Konservatoriyada o‘qish davomida an’anaviy rubobijrochiligi bo‘yicha samarali faoliyatini olib boradi. U 2001- yili O‘zbekistor Respublikasi Prezidenti tomonidan ta’sis etilgan “Nihol” davlat mukofotiga sazovor bo‘ladi. 2003-yili konservtaoriyaning bakalavriat tizimini imtiyozli ravijda bitirib, rubob cholg‘uiijrochiligi bo‘yicha magistratura bo‘limiga o‘qishga qabul qilinadi. Magistratura tizimida ham Rifatilla Qosimov sinfida mahoratini oshiradi. 2003 yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan YU.Rajabiy nomidagi YOsh maqom ijrochilarining Respublika ko‘rik tanlovida rubob sozi bo‘yicha qatashadi va faxrli I o‘rinni egallab laureatlik unvoniga sazovor bo‘ladi.

Mansur Vaisov 2005 yili magistraturani tamomlab, Magistr darajasini oladi. Ustozlarning tavsiyasi bilan O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi “An’anaviy ijrochilik” kafedrasiga o‘qituvchi lavozimiga ishga qabul qilinadi.

Mansur Vaisov an’anaviy rubob ijrochiligida yaqin 20 yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu davrda uning ijrochilik mahorati va ustozlarga xos olibborgan faoliyati samarali darajada shakllandi va o‘zining mevalarini namoyon etdi. Avvalambor, shu davr ichida bir qator ustozlar sabog‘i zaminida o‘zining ijro yo‘llarini shakllartirishga muvaffaq

bo'lmoqda. An'anaviy musiqa ijrochiligi bilan birga konservatoriyada pedagogik faoliyatini ham olib bormoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha bir qator o'quvchilarni tarbiyalab an'anaviy rubob ijrochiligi amaliyotiga o'zining hissasini qo'shib kelmoqda.

U o'z ijrolari bilan ko'plab horijiy davlatlarda bo'lib, o'zbek san'atini dunyo bo'ylab taralishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan: Italiya, Hindiston, Tayvan, Koreya, Yaponiya, Rossiya, AQSH, Angliya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Slovakiya, CHexiya, Turkiya kabi yigirmadan ortiq davlatlarda o'zbek mumtoz musiqa namunalarini targ'ib qilishga muvaffaq bo'lmoqda.

II BOB. USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANALARI

II.1. Ustoz-shogirdlik - an'anaviy ta'limning asosidir.

Ustoz-shogird usuli, sharq cholg'u ijrochiligi madaniyatining azaldan shakllangan ta'lim asosidir. Musiqa sohasining qaysi bir yo'nalishini olmang, uning ta'lim jarayoni ustoz-shogirdlik asosida amalga oshirilib kelinganligini guvohi bo'lasiz. Xonandalik, sozadalik sohalarining og'zaki an'anaga xos tartibda boshlanganligi va avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotganligi bunga yorqin misoldir.

O'zbek musiqa merosi og'zaki an'anadagi musiqa deb kelinganligining o'zida ustoz-shogirdlik an'anasiga namoyon bo'lib turadi. SHarq xalqlarining barchasida ham ustoz-shogirdlik an'anasining negizida og'zakilik mavjad ekaligi bilan ajralib turadi. Ustoz-shogirdlik jarayoni ham qadimdan shakllangan va o'zining kasbiylik jihatlariga yuzaga kelgan bir qator qoidalar, usul va uslublari mavjuddir. Ularning tabiiy jarayonga asoslanishi hamda ustozlikka xos xususiyatlar kasb etishi muqarrardir. Maqomlar vositasida o'quvchi-yoshlarni ijro mahoratini shakllantirishning shakl, vosita va usullari, an'anaviy cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida amal qilib kelayotgan tizimning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi sa'atida o'zbek xalq maqomlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbek xalq maqomlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida rubob ijrochiligi mashg'ulotlarida nazariy va amaliy bilim hamda tajribalardan foydalanish.

- o'zbek maqomlarining tarbiyaviy imkoiyatlarini ochish hamda namunalarii tanlashda ularni axloqiy-estetik tomonlarini e'tiborga olish,

o'zbek maqom san'atining musiqiy ohangdorligi va uning ta'limoluvchilar tomonidan idrok qilinishiga e'tibor qaratish.

- musiqa cholg'ulari ijrochiligida o'zbek maqomlarini ijro eta olish ko'nikmalarini takomillashtirish;

- cholg'u ijrochiligi sinfi mashg'ulotlarida maqom san'ati, xalq qo'shiqlarini ijro qilish uslubi haqida ta'lim oluvchilarga nazariy ma'lumotlar berish;

- ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida ularni musiqiy bilim, kuzniqma va malakalarini rivojlantirish. Estetik did, idrok kabi sifatlari shakllantirish;

Ma'lumki cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlariga qo'yiladigan asosiy talablarda biri, ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayonida ijro texnikasini o'rgatish, musiqiy asarlarni idrok etishlariga ko'maklashish, musiqiy bilim berish bilan bir qatorda, ularda musiqiy asarlardan zavqlanish, estetik idrok qilish malakalarini tarkib toptirishda iborat.

O'zbek maqom san'atini o'rganish hamda cholg'u ijrochiligida chalish jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun ta'lim oluvchilarning o'qish faoliyatini takomillashtirish bilan birga ma'naviy-estetik tarbiya sohasida ham qator ishlarni bajarish talab etilmoqda. Bundan tashqari mustaqil ta'lim tashkil qilinib, o'rgatadigan musiqiy bilim mustahkam lanadi. CHunki, o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalash vositasi va shakllari qanchalik rang-barang bo'lsa, shuncha yaxshi samara beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, asosa ijrochilik mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar o'zbek xalq maqomlari namunalari bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari va kuylarini ham o'rganadilar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liklik va farqlarni anglashga harakat qiladilar. Natijada ular e'tiboriga havola qilinayotgan maqom namunalari va xalq qo'shiqlarining o'zigagina xos bo'lgan tomolarini ajrata oladilar., ularning o'zaro o'xshash va farqlari, umumiy tomonlarini guruhlash, taqqoslash kabilardan foydalanib xulosalar

chiqaradilar. SHuning uchun ham qo'shiqlari qadimdan shakllangani bois ularga nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo'lmagan bir vaqtda yaratilgan va ular ustoz-shogird a'analari asosida bizgacha etib kelgan.

Bugungi kunda rubob ijrochiligi mashg'ulotlarining tashkil etilishiga jiddiy e'tibor qaratilishi zarur. Bu o'rda quyidagi holatlarni inobatga olish talab etiladi:

1. O'zbek xalq maqomlari vositasida ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalashda ijro etish yo'llarini, ijro usullariimkoniyatlarini aqlash;

2. Har bir maqomning ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi mohiyatini tushunish, ularni puxta o'zlashtirishga imkon beruvchi o'quv materiallarini oldindan berish;

3. maqom namunalarining ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi ahamiyati va maqsadini aniq belgilash;

4. Rubob ijrochiligi mashg'ulotlarida maqomlarni o'rgatish jarayonida ta'lim oluvchilarga shu kabi ijro etish uslubi,ovoz tembri jarangdorligini ta'minlashga xizmat qiladigan qat'iy tartibga amal qilishlarini ta'milash.

Rubob ijrochiligi mashg'ulotlarida ustozlar ijro uslublaridan foydalaish orqali ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalashning shakl vositalari va usullari yordamida tashkil etishda o'qituvchilarning chuqur mutaxassislik bilimlari, shuningdek,yuksak kasbiy mahoratigi ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq o'qituvchi faoliyatlari va tajribalarini o'rganish atijasida ma'lum bo'ldiki, ularning aksariyati o'zbek xalq maqomlari va qo'shiqlarini nazariy jihatdan etarli bilmaydilar.,ularni ijro uslublarida kemptikliklar amoyon bo'ldi.

Ta'lim oluvchilarga har bir hududning musiqiy ohangi, jozibadorligi, ritmlari va ularning o'zaro farqlanishi, musiqa asboblarning o'rni va ahamiyati, liboslar va kiyinish madaniyati bilan farq qilinishini o'rgatish zarur.

CHolu ijrochiligi mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarga milliy istiqlool mafkurasini singdirish, ijro madaniyati va texnikasi, hozirgi farovon turmush

qadriga etish hislarini singdirish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

II.2. MAKTAB DAVOMCHILARI.

Maqom ijrochilining o'ziga xos jihatlaridan biri, maqom sozanda va xonandalarining ustozlik darajasini egallashlari, ustozlar ijrolarini egallab o'z ijro uslublari yaratishlari, an'anaga mos holatda shogirdlarni tarbiyalashlari va pirovardida ijro maktabini davomchilarini shakllatirishlaridir. Maqom ijrochiligi sa'atida yakkanavoz cholg'u ijrochilari va xonandalari hamda maqom ansamblari ijrochiligida bunday holatlar yuzaga kelgandir. Hattoki, Respublikamizda mavjud vohalardagi ustozlar va ansamblarning o'z ijro uslublari amaliyotda mavjudligini aytish mumkin.

Buni albatta o'z qoidalari va amal qilinishi lozis bo'lgan jarayonlari amaliyotida shakllagan. Bu borada R.Qosimov o'z kitobida yozadi: - "O'zbek va tojik xalqlarining yirik shakldagi musiqa meroslari turli yo'l (variant)larda ijro etib kelingan. Ma'lumki, har bir maqomdon ustozlarni o'z ijro uslublari, imkoniyatlari, qolaversa maktablari bo'lgan. O'tmishda har bir maqomdon hofizlar, sozandalar o'zlarining shogirdlariga musiqa merosini o'rgatishda o'z uslublari va tajribalariga tayanganlar. Masalan, Buxoroda maqomlarni ustozlar avvaliga shogirdlari qo'liga doyra tutqazib, o'z ijrosiga (xonandalarga) o'zi usul berish yo'li bilan o'rgata boshlaganlar. Ularning maqsadlari maqom, umuman an'anaviy ijrochilikdagi oddiy va murakkab usullarni puxta o'rgatish bilan birga xonishiga o'zi usul bera oladigan ite'dodli xonandalarni tarbiyalash bo'lgan. Ayniqsa murakkab hisoblanmish «Talqin» $3/8$, $3/4$; «Savt» $5/4$ ($3/4 + 2/4$); «Mo'g'ulcha» $5/4$ ($3/4 + 2/4$);

«Ufarlar» 3/4, 6/8 va boshqa usullarda aytiladigan ashulalar ijrochidan yuksak idrok qobiliyat va mahorat talab etadi»¹¹.

Sozandalarning ushbu uslubda tarbiyalash an'anaviy musiqa ta'limining asosi sifatida muhim ahamiyatli ekanligini qayd etish lozimdir. Ijro uslublarning shogirdlar tomonidan davom ettirilishida, ustozlarning ijro texnikalari, holatlari, zarblari va qo'llaniladigan turli bezaklarni harakatlaridagi mutanosiblik ustoz – shogirdga xos bo'lishi bilan izohlaniladi. Avvalo har bir sozanda o'z ustozining ijro uslublari tarbiyalanib etishadi, so'ngra, uning ustozona qobiliyati natijasida o'z xususiyatlarini ifoda etsa, o'zining ijro uslubini shakllantiradi. Lekin, ustozining maktabi negizidagi bar uslub sifatida amaliyotda muhrlanadi.

Yuqorida zikr etilgan har bir ustozlarning ijrochilik amaliyotlarida ushbu jarayon o'ziga xos shaklda gavdalangan. SHu bois ular ijrochilikdagi asoslangan maktablari va o'z ijro uslublari ega bo'lganlar.

Ustoz san'atkor **G'ulomjon Qo'chqorov** o'zining pedagogik faoliyati davomida ko'plab sozandalarning shu kasbning ilk bosqichi bo'yicha saboq berib, sozandalik kasbiga olib kirgan ustoz hisoblanadi. Ustozni ta'limini olib oliy o'quv dargohlarida tarbiyalanib va sozandalik sohasida katta-katta yutuqlarga erishgan sozadalar talaygina. SHulardan G'ulomjon Hojiqulov, Rifatilla Qosimov lari misol qilish mumkin.

Muhammadjon Mirzaev o'zining betakror ijrosi va rubob ijrochiligi bo'yicha ilk maktabni yaratgan san'atkoridir. O'zbekistondagi aksariyat rubob ijrochilari ushbu ustozning ijrolariga tayanib, ularga ergashib rubob ijrochiligini boshlagan. SHuning uchun bo'lsa kerak xalqimiz orasida Muhammadjon Mirzaev xalqimizning ijrochilik an'analari rubob cholg'usinasoschisi deb yuritiladi. Bu esa har qanday ijrochi, rubob cholg'usi bilan ijrochilik faoliyatini shakllatirgan sozadalar Muhammadjon

¹¹ R.Qosimov, «An'anaviy ijrochilik», T., 2007 y. 15 bet

Mirzaevning asarlarini albatta ijro etib ulgʻayadi. Har bir rubob uchun rubob ijrochiligi ustasi va ustozini sanaladi. Uning farzandi va shogirdi SHavkat Mirzaev bevosita ijro maktabining davomchisi sifatida ustozning ijro anʼanalarini davom ettirib kelmoqlar.

Sulaymon Taxalov – rubob va ud cholgʻulari ijrochiligi boʻyicha pedagogik faoliyat olib borib bir qator shogirdlar tarbiyalashga muvaffaq boʻlgan. Sulaymon Taxalov pedagogik ishi bilan birga faol ijrochilik faoliyatini ham olib borganidir. Mohir sozandaning qashqar rubobida hamda ud cholgʻu sozlarida bir qator asarlarni ijro etib magnet tasmlariga, plastinkalarga yozib qoldirishga muvaffaq boʻladi. Uning ud cholgʻu sozida ijro etgan maqom va mavrigi namunalari uning ijrochilik anʼasini davom ettirib kelayotgan sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda.



Uning ijrochilik uslubida tarbiyalangan oʻquvchilar aksariyati rubobchilar va afgʻon rubobi ijrochilaridir. Lekin ud cholgʻusi boʻyicha ham uning merosidan amunalarini ijro etib keladilar. Qobuljon YUusupov, Adham Xudoyqulov, R.Qosimov, SH.SHoraxmetov, Rustam Karimov, Zulxorbek Turopov kabi mohir sozandalar ustoz tarbiyasini olib oʻz ijro uslublarini yaratgan sanʼatkorlar qatoridan joy olganlar.

Tohir Rajabiy o'zbek musiqa san'ati rivojida, o'zining ijrochilik faoliyati bilan samarali hissa qo'shgan san'atkordir. Mohir sozanda Tohir Rajabiyning ijrochilik dasturi keng ko'lamligi, turli xalqlar musiqiy namunalaridan hamda professional kompozitorlik ijodidan iborat bo'lganligi ko'pchilikka ayondir. Ustozning zamonaviy musiqa namunalariing turli janrlarida yaratilgan va ijro etilgan asarlar ham Tohir Rajabiy tomonidan qashqar bubobida chiroyli tarannumsini topganligini qayd etish lozimdir. Ijrochilik amaliyotida uning ijro uslubida tarbiyalangan va uslubini Mohir Rajabiyga o'xshagan bir qator sozandalar davom ettirayotganliklari va ayniqsa yoshlar tomondan ijro uslubi kegg qo'llanilishini qayd etish lozimdir.

Rifatilla Qosimov ustoz san'atkor G'ulomjon Qo'chqorov dan rubob ijrochiligining dastlabki saboqlarini olib sozandalik dunyosiga kirib keladi. So'ngra Sulaymon Taxalov sinfida an'anaviy ijrochilik sirlarini o'zlashtiradi. Rubob ijrochiligida mavjud bo'lgan Muhammadjon Mirzaev kabi sozandalarning ijro uslublari ham qunt bilan o'zlashtiradi. Konservatoriyada ko'p yillar davomida olibborgan pedagogik va ijrochilik faoliyati davomida, maqomlarni talqini bilan bog'liq o'z ijro uslubini shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Uning sinfida tarbiyalanib ijro amaliyotida munosib ish olib borayotgan sozandalar uning ijrochilik uslubii davomchilari hisoblanadilar.



R.Qosimovning rubob va ud cholgʻulari ijrochiligida etishib chiqqan mohir sozandalardan Bahodir Imomaliev (Rubob), Umarali Bulturov (ud), Odil Orziev (ud), Bayot Hamroqulov (rubob, ud), Alijon Joʻraev (ud) kabilarning zamonaga mos holda faoliyatlarini davom ettirayotganliklarini qayd etish lozim.

X U L O S A

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha yoritilgan masalalarni muhtasari qilib qayd etish lozimki, xalqimiz musiqiy cholg'ulargaboy. Ularning har birining o'z tarixi, tarix davomida takomillashib rivojlanish jarayonlari, milliy musiqa va mumtoz musiqamizning rivojiga, ijrochilik amaliyotining kamolotiga bo'lgan ta'siri mavjud. Bularning aksariyati tarix davomida yozilgan risola va kitoblarda ma'lum darajada o'z aksini topgan. Lekin, ijrochilik masalalari, aslida jonli jarayon bo'lganligi sabab bo'lsa kerak asosan ijro amaliyotiga e'tibor qaratilgan.

Mustaqillik davriga kelib mumtoz musiqa ijrochiligi yanada rivojlandi, maqom ijrochiligi yoshlar orasida ma'lum darajada ommalashdi. Sozandagik san'atida iqtidorli yoshlarning safi ko'paymoqda. XX asrda faoliyat olib borgan ustozlarning ijro uslublari yosh avlod tomonidan, ularning shogirdlari tomonidan davom munosib davom ettirilmoqda.

Qashqar rubobining ijro amaliyotiga kirib kelganligiga bir asr bo'lmagan bo'lsada ijrochilik amaliyotida cholg'uning bir qator mohir ijrochi sozandalar etishib chiqdir. Har birlarining rubob cholg'usining go'zal tarannum etishidagi ijro uslublari yuzaga keldi. Cholg'uning ta'limoti amaliyotida an'anaviy uslub, ya'ni ustoz-shogird an'analari xalqimizning qadriyatlariga xosligi yana o'zini namoyon etdi. Ijro uslublari avlodlar tomonidan shogirdlarning amaliyotida davom ettirilishiga muvaffaq bo'lib kelinmoqda. Muhammadjon Mirzaev ijro uslubi shogirdlar tomonidan davom ettirilib, ijrochilik maktabi darajasida davom etmoqda. Tohir Rajabiy o'zining texnik jihatlarga boy ijrolari, zamonaviy asarlar talqini bilan rivojlangan o'ziga xos uslubi, Rifatilla Qosimovning maqom ijrochiligidagi mumtoz yo'nalishga asoslangan ijro uslubi shogirdlar tomonidan davom ettirilishini alohida qayd etish lozim. Avlodlarning ustozlar an'anasini davom ettirilishi, aynan ustoz-shogird an'analariing bizning davrimizga kelib o'ziga

xos an'analar zaminida zamonaviy uslubda kamol topayotganligiga namunadir.

SHarq xalqlarining qadimiy cholg'ularidan hisoblanmish ud sozining o'zbek mumtoz musiqa merosi ijrochiligi amaliyotida keq qo'llanilishining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'tgant asrning 70-yillaridan ijro amaliyotida qayta tiklanishi maqom ijrochiligi va umuman o'zbek musiqa ijrochiligini ahamiyatli darajada boyitdi desak adashmagan bo'lamiz. Maqomlarni ijrochiligida yanada salobatli sadolantirish qayta tiklandi. Ud cholg'u ijrochiligiga ahamiyat kuchaydi, ta'lim tizimida ustoz-shogird qabilida saboq berish ma'lum darajada yo'lga qo'yildi. Ta'lim jarayonida keng miqyosda amaliyotga joriy qilishda ustoz san'atkor, konservatoriya professori Rifatilla Qosimovning say'i harakatlari o'z sam arasini namoyon etdi. Uning sinfida tarbiyalanib, amaliyotda munosib faoliyatini olibborgan bir qator shogirdlar ud cholg'u ijrochiliginikeng ommalashishiga zamin yaratdilar. Turli vohalarda o'ziga xos maktab davomchilari sifatida olib borgan ustoz-shogirdlik an'analaridagi faoliyati negizida, ud ijrochilarining yangi avlodlari yuzaga keldi.

Rubob va ud cholg'ularining zamonamizga kelib davrga mos rivojida, ijro yo'llarining samaralarida ustoz-shogird an'analari asosida berib kelinayotgan ta'lim alohida ahamiyatga egaligi yana bir bor o'z isbotini topdi. CHolg'u ijrochiligida o'tmiz mohir sozandalaridan meros bo'lib qolgan ustoz-shogird an'anasini kelajak avlodi tomonidan muosib davom ettirilishi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimiov. YUksak ma'naviyat- engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008 y.
2. I.Rajabov. Maqomlar, T., 2006 y.
3. I.Rajabov - Maqomlar masalasiga doir, T., "Fan", 1963 y.
4. A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., "Fan", 1993.
5. YU. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi 5 – tom. T., 1959 yil.
6. I.Rajabov. Maqom asoslari. T., 1992.
7. O.Matyokubov - Maqomot, T. 2004 y.
8. S.Begmatov, M.Matyokubov, O'zbek an'anaviy cholg'ulari, T., 2006y
9. Belyaev V. «Музыкальные инструменты Узбекистана» М., «Gos.izd.» 1933 g.
10. Vызго T.S. «Музыкальные инструменты Средней Азии», Т., 1980 y;
11. Karomatov F. «Узбекская инструментальная музыка» Т.,«G'.G'ulom», 1972 g.
12. Qosimov R. «An'anaviy rubob ijrochiligi» Т., «O'zbekiston», 1999y.
13. Qosimov R. «Ud», Т., «G'.G'ulom», 2002.
14. Qosimov R. «An'anaviy tanbur ijrochiligi» Т., «CHO'lpon», 2002.
15. Rajabiy YU. «O'zbek xalq musiqasi» I- IIItomlar, Т., 1957-59 yy.
16. Rajabov I. «Maqomlar masalasiga doir», Т., «Fan» 1963 y;
17. Sredneaziatskiy traktat po muzyke Dervisha Ali (XVII veka), A.Semyonov tarjimasi (rus). Т., 1946 y.
18. Firdavsiy A. «SHohnoma» Т., «G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at», 1984 y., 199 s.

Ilova

(nota misoli)

Nasr - ashula bo'limi

Birinchi guruh sho'balari

Buzruk sarahbori

m . m ♩ = 72-76

Dil - bar so - g'in - ma - gan ji - ha -

ti bu fi - roq e - mish

"ko'z - din yi - roq bo'l - sa, ko' ngul - din yi-

roq e- mish". o o

o

jo - ni - mo o

o Tin-mas ha - yo - li ku - ni - cha ko'z

yo - shi qat-ra-din, yuz so - ri - ni yu - guz - gu-chi

gul - gun bu - roq e - mish. o

o

jo - ni - mo

o

Bo'l - mas vi

so - l bir - la ko'ngul dar - du do - g'i kam, ul to'y - ma

g'ur - da, vah, ne ba - lo ish - ti - yoq e -

mish. o yo -

ram - mo jo - no - ni - mo o

o

o

o jo - ni - mo o

Qon bog` - la - di ji - gar - la - ri ul g`am - za zah - mi - din,

Chi -

nu Xi - to - da ne - cha - ki o - hu qa -

roq e - mish. o

Yo -

dek bo` yim - ni eg - di qo - shing bo - ri

g'am bi - la o

o o

kim, eg - ri - lik - da

dav - ri qa - mar ich - ra toq e - mish,

o o

Buz - di qa

ro che-rik bi-lan ko'ng-lum vi - lo - ya-tin, ul

ko'z - ki turk - lar-dek i-shi ta - la - moq e-mish

o o yo - ra-mey

Lut - fiy, Hi - riy - da

qol - ma - di she' - ring - ga mush - ta - riy

o yo-ro yo - ra-mey Az - mi Hi - joz qil - ki, ma - qo - ming I - roq e - mish. jo - nim yo-ra jo - nim-mo yo - ram - mo jo - no - nam mo a - si - ring-man o Lut - fiy, Hi - riy - da qol - ma - di she' ring - ga mush-ta-riy, az - mi Hi - joz qil - ki, ma

qo - ming I-roq e - mish o o

o o

jo - ni - mo o rit.

o rit. attacca

Tarona I

m . m . J = 100

Ne fik - re - kim se - ning

fik - ring e-mas, ul - fikr e-rur bo - til,

ne um-re - kim o` - tar sen - siz, e-rur ul um -

r(i) be - ho - sil

Ja-fo u jav - r(i) tav - ri - din e-rur - sen_ as .

-ru ko'p vo - kif, va-fo - u meh - r(i) ras - mi - din

bo' lur - sen_ as - ru ko'p g'o - fil.

Qu-yosh yang - lig` yu- zin(g) - ga men -

du-rur - men vo - la - u hay - ron, du- rur - men

vo - la - u hay - ron, yan-gi oy - dek qo

shing - ga men du- rur - men o - shi-qu mo -

-yil Ke-chur - dung o - - yu yil - ni

mas - tu be - hud - lig` bi - la Bo - bir,

ne-cha g'af - lat bi - la umr o't -

-ka- rur - sen, ne - - cha kun, oy, yil

Tarona I I

m . m . J = 112

Jo - nim - da me - ning, jo - nim - da me
ning ha - yo - ti ey jo - nim sen sen jo -
nim sen - sen, yo - rey jis - mim - da me - ning, jis -
mim - da me - ning ru - hi ra - vo - - nim_ sen -
- sen, jo - nim_ sen - sen yo - rey Bo - bir - ni se - ning-dek, Bo -
bir - ni se - ning-dek, o`z - ga yo`q yo - ri a - zi -
z(i), yo - ri a - zi - zi, yo - ray, al - qis - sa - ki
um - ri al - qis - sa - ki um - ri jo - vi - do - -
nim_ sen - sen jo - nim sen - sen yo - rey. *attaca*

Tarona I I I

m . m . J = 104



Tarona IV

m . m . ♩ -116=120

Jo - ni - man, yor, jo - no - ni - man, jo -

- no - ni, yor, be-par - vo - yi - man. To tu na

bo - shi yo ri - man, so -

- mon na - yo - bad ko - ri - man attacca

Tarona V

m . m . ♩ = 160

m . m . ♩ = 100

Haj - ring - da, ey yor, ko - rim_ fi - g'on -

- dur, tin - may ko' zim - din ash -

kim ra - von - dur. Ay - la ta - rah - hum

men - ga ni - go - rim, ah - vo - li zo - rim
 sen - ga a - yon - dur. Ul lo - la yang - lig'
 bag' - rim - da qat - qat, boz us - ti - na boz
 boz us - ti - na boz dog' - lar ni - hon - dur.
 Gul - dek yu - zing - - ni ish - qi -
 - da Nis - bat Bul - bul - ga o'h - shash ko -
 ri fi - g'on - - dur attacca

Tarona VI

m . m . ♩ = 96

m . m . ♩ = 152

Ko' - zing ne - ba - lo qa - ro bo' - lub -
 33 48
 tur, kim jon - ga qa - ro ba - lo bo' - lub - tur.

Maj - mu - i da - vo - nidard qil - ding,

dar - di, ki men - ga da - vo bo' lib - tu - ro,

yo - rey va - fo - do - rey hay - yo - ring - man. Mu - ni - si

g'am - xo - rey, qur - bo - ning - man hay yo - ra - mey

o o o

yo - ra - mo jo - ni - mo. attacca

GULUZORIM

Hoji Abdulaziz Abdurasulov
musiqasi

M.M. ♩ = 112

The musical score is written for a single melodic line in treble clef, key of D major (one sharp), and 3/4 time. The tempo is marked 'M.M.' (Moderato) with a quarter note equal to 112 beats per minute. The score consists of ten staves of music. The first staff begins with a whole rest, followed by a series of eighth and quarter notes. The subsequent staves continue the melody with various rhythmic patterns, including eighth notes, quarter notes, and half notes, often grouped with slurs. The piece concludes with a final half note on the tenth staff.











Бухорча Мавриги

С.Тахалов ижросидан
З.Турапов нотага олган

Moderato

Cadenza

9

16

23

29

37

43

49

55

62

f (*p*)

mf

p

f

mf

mf

2

69 *rit.* **Allegro**

8

f

75

81

87 9 *mf*

93 10 *f*

99 *f*

105 11 *mf*

112 12 *f*

119

125 *f* Cadenza

Detailed description of the musical score: The score is written on a single staff in G major (one sharp). Measures 69-74 are marked 'rit.' and 'Allegro'. Measure 75 starts with a forte (f) dynamic. Measures 81-86 continue with the forte dynamic. Measure 87 introduces a mezzo-forte (mf) dynamic. Measures 93-98 are marked forte (f). Measures 99-104 continue with forte. Measures 105-110 are marked mezzo-forte (mf). Measures 112-118 are marked forte (f). Measures 119-124 continue with forte. Measure 125 is the final measure, marked forte (f) and labeled 'Cadenza'.